

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

TARIX FAKULTETI

TARIX KAFEDRASI

Fakultet dekani:

Ochilov O'.S.

Kafedra mudiri:

Rahmonov K.J.

BITIRUV MALAKAVIY ISH

**Mavzu: 1920-1924 yillarda BXSR hukumatining
harbiy va ijtimoiy sohalaridagi tub
o'zgarishlarning tarixshunosligi**

**5120300- Tarix (mamlakatlar va mintaqalar bo'yicha) bakalavr darajasini
olish uchun**

**Tarix ta'lim yo'nalishi
bitiruvchisi: Mubinov Muhammadali Akobirovich**

**Ilmiy rahbar:
Dots. Rahmonov K**

Mundarija:

Kirish.....	3
I bob. Buxoro Xalq Sovet Respublikasi hukumati yillarida harbiy islohotlar: tarixshunosligi va o`rganilish darajasi.....	8
1.1. Buxoroda amirlik va BXSR yillarida harbiy soha rivoji: qiyosiy tahlil.....	8
1.2. BXSR harbiy yo`nalishiga oid materiallarning istiqlool davri asarlarida yoritilishi.....	18
II bob. 1920-1924-yillarda ijtimoiy o`zgarishlar tahlil.....	29
2.1. Buxoro Xalq Sovet Respublikasida maishiy hayot va xotin-qizlar masalasi bilan bog`liq o`zgarishlarning tarixshunosligi.....	29
2.2. Buxoro amirligi va BXSR davrida aholi salomatligi va sog`liqni saqlash tizimi sohasidagi amalga oshirilgan tadbirlar.....	40
Xulosa.....	51
Foydalanilgan adabiyotlar.....	54

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. O'zbekiston Respublikasi milliy mustaqillikka erishganidan so'ng vatanimiz tarixini obyektiv va xolisona tadqiq qilish, tarixiy haqiqatni xalqimizga yetkazish yo'lida ulkan ishlar amalga oshirildi. Sho'ro davri tarixini yangidan tadqiq qilish, o'sha davr tarixiy adabiyotlarida tanqidiy nuqtai nazaridan yondashib ish ko'rilishi barobarida samarali yutuqlarga erishilganligi sir emas.

O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I. A. Karimov: "Men sho'ro davrida yozib berilgan tarixni hisoblamayman, chunki o'zgalar yozib bergan tarix, hech qachon xolis bo'lmaydi."¹, - deb ta'kidlaganlarida to'la haqli edilar.

Mustaqillik yillarida ijtimoiy fanlar, jumladan, tarix ilmining tarkibi qismi bo'lmish tarixshunoslik masalasida erishilgan yutuqlar zalvorli va asrlarga tatigulikdir. Birinchi Prezidenti I. A. Karimov tarix va tarixiy xotiraning ma'naviyatimiz rivojidagi o'rni haqida: "Ma'naviyat o'z xalqining tarixini, uning madaniyati va vazifalarini chuqur bilish tushunib yetishga suyangandagina qudratli kuchga aylanadi. Tarixga murojaat qilar ekanmiz, bu xalq xotirasi ekanligini nazarda tutishimiz kerak. Xotirasiz barkamol kishi bo'lmaganidek, o'z tarixini bilmagan xalqning kelajagi ham bo'lmaydi"², – degan edilar. Yuqoridagi fikrdan kelibchiqib, biz tariximizga bugungi kunda qurayotgan huquqiy demokratik davlatning tajriba tarozisi sifatida qarashimiz kerak.

Mustaqillik yillarida O'zbekiston tarixining hanuzgacha bizga noaniq bo'lgan qirralari ochildi. Milliy o'zligimizni anglash, milliy tilimiz va urf-odatlarimiz nechog'li qadrli va aziz ekanligini idrok etishimiz tufayli taraqqiyot pillapoyalaridan rivojlanib boryapmiz. Bugungi kunda tarixshunoslik fani oldida O'zbekiston xalqi va davlatchiligi tarixini to'liq tiklash vazifasi turar ekan, qadimiy, ko'p asrlik sivilizatsiyaga ega bo'lgan Buxoro tarixini mukammal

¹Каримов И. А. Тарихий хотирасиз келажак йўк. –Т.: "Шарк" 1998. –Б.9.

² Каримов И.А. Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. 1-жилд. –Т.: "Ўзбекистон". 1996. – Б. 80.

tadqiq qilmasdan turib bu mas'uliyatli ishni uddalay olmaymiz. Ushbu nuqtai nazardan qaraganda men tanlagan “1920-1924-yillarda BXSР hukumatining harbiy va ijtimoiy sohalaridagi tub o`zgarishlarning tarixshunosligi” nomli bitiruv-malakaviy ishi mavzusi dolzarb va muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

I.A. Karimov o`zlarining nutq va asarlarida Buxoroning boy tarixiga madaniyatiga qayta qayta murojaat qilganlari ham bejiz emas. “Tarix O`zbekistondagi tub demokratik islohotlarni oziqlantiruvchi hayotbaxsh chashmaga aylanib bormoqda. Buxoro, Xiva va Samarqandning ko`hna madaniyati, ajdodlarimiz qoldirgan ulkan meros tarixiy xotiramizni uyg`otmoqda, yangicha fuqarolik ongini shakllantirmoqda”³, - deb yozgandilar Birinchi Prezidentimiz.

Mavzu dolzarbligini oshiradigan omillardan yana biri, 1997-yilda YUNESKO qarorgohi Parijda (Fransiya) Buxoro va Xiva shaharlarining 2500 yilligi tantanalarini jahon miqyosida nishonlanganligidir. Ushbu yubiley bayramlari arafasida undan keyin o`tgan tarixiy davr ichida tarixchilarimiz, publitsist va jurnalistlarimiz, adabiyotshunos olimlar Buxoro o`tmishiga oid nodir asarlar yozdilar.⁴

O`zbek milliy davlatchiligi tarixida garchi qisqa davr yashagan bo`lsada Buxoro Xalq Sovet Respublikasi (1920-1924-yillar) muhim bosqich bo`lganligini qayd etish o`rinlidir. BXSРda F.Xo`jayev boshchiligida milliy hukumatning shakllanishi, milliy mustaqil rivojlanish sari amaliy qadamlar qo`ydi. BXSР hukumati mustaqil davlat sifatida ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va harbiy islohotlar olib bordi. Yangicha va demokratik, zamonaviy davlat qurish g`oyalarini baland ko`tarib chiqdi va sho`ro mustamlakachiligi tahdid solib turgan bir davrda milliy mustaqil davlat sifatida boshqa davlatlar bilan teng huquqli aloqalar o`rnatdi. Mustaqillik yillarida Buxoro Xalq Sovet Respublikasining tarixini, o`sha davrlarda kechgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni,

³Karimov I.A. Bizkelajagimizni o`z qo`limiz bilan quramiz. 7-jild. –T.: O`zbekiston, 1999. –B.146.

⁴Инсониятнинг илмий ва маданий мероси –учинчи минг йилликка//Бухоро ва Хива шаҳарларининг 2500 йиллигига бағишланган халқаро симпозиум тезислари. –Т.: Ўзбекистон, 1997. –Б. 4.

iqtisodiy-madaniy rivojlanish xususiyatlarini yangicha tafakkur nuqtayi-nazaridan yoritgan talaygina asar va maqolalar yaratildi.

Buxoro Xalq Sovet Respublikasining davriy matbuoti, 20-yillarda yaratilgan asarlar, mustaqillik davri asar va maqolalarida BXSRdagi ijtimoiy,iqtisodiy va madaniy jarayonlarning turli sohalari hisoblangan hukumat boshqaruv tizimi,aholi soni, ijtimoiy tarkibi, xalq salomatligi, xotin-qizlar muammosi,harbiy-ma'muriy islohotlar, paxtachilik, qorako'lichilik, ipakchilik, milliy sanoat, hunarmandchilik, soliq va bank tizimlari, pul muomalasi, narx-navo, maktab va maorif tizimi, madaniy oqartuv muassasalari faoliyati, tashqi aloqalari va hokazolar haqida muhim ma'lumotlar mavjud. Ushbu masalalarni o'rganish tarixshunoslikning muhim qismi hisoblanib, yuqoridagilarni o'rganish O'zbek davlatchiligi tarixini yoritishda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Mavzuningo'rganilganlik darajasi. Ushbu men tanlagan “1920-1924-yillarda BXSR hukumatining harbiy va ijtimoiy sohalardagi tub o'zgarishlarning tarixshunosligi” mavzusidagi bitiruv-malakaviy ishining mazmunini yoritishda BXSR mavjud bo'lib turgan davrdagi mahalliy matbuot materiallari, BXSR davlat va siyosat arboblari maqola va asarlari, mustaqillik davri matbuot materiallari, asarlari, tarixshunos olimlarning maqolalaridan tanqidiy nuqtai nazardan foydalanildi.BXSR tarixiga doir ya'ni harbiy va ijtimoiy islohotlarga doir ma'lumotlar keltirilgan adabiyotlarni tahlil qilar ekanmiz, ularni o'z xususiyati va davriga qarab quyidagi guruhlariga bo'lamiz:

Birinchi guruh adabiyotlariga BXSR mavjud bo'lgan davr, ya'ni Sho'ro davri adabiyotlari⁵ va o'sha davr (1920-1924-yillar) vaqtli matbuot materiallari⁶ kiradi. Sho'ro davrida yozilgan adabiyotlarda bolshevikcha mafkura ta'siri sezilib turadi. Ushbu yuqoridagi adabiyotlarda, xususan, BXSR davlat rahbari bo'lib faoliyat olib borgan Fayzulla Xo'jayev asarida, “Buxoro axbori” va “Ozod

⁵ Файзулла Хўжаев. Танланган асарлар. –Т. 1976. I том; Шу муаллиф. К истории революции в Бухаре. –Т.: 1926.

⁶ БХСР маҳаллий нашри ҳисобланган “Бухоро ахбори” ва “Озод Бухоро” газеталари бўйича Ш. Ҳайитов ва К. Раҳмоновларнинг ёзган мақолалари ва монографияларидан фойдаланилди.

Buxoro”(1923-1929) gazetalari materiallarida harbiy soha ahvoli, harbiy sohada BXSРda amalga oshirilgan tub o`zgarishlar, islohotlar tarixi, ijtimoiy soha yangiliklari, madaniy-maishiy va kundalik hayot, xotin-qizlar masalalari batafsil yoritilgan. Bundan tashqari, bu guruh adabiyotlariga mahalliy tarixchi Muhammadali Baljuvoniyni asari⁷ va Buxoroning sobiq amiri Said Olimxonning xotiralari⁸ ham kiritildi. Bundan tashqari, BXSРdagi davlat va siyosat arboblari Abdurauf Fitrat, Fayzulla Xo`jayev, Said Ahroriy, A.Aliyev, Abdulhamid Oripov, Q.Y.Po`latov yozgan maqolalar o`rganib chiqildi.

Ikkinchi guruh adabiyotlariga mustaqillik davrida yaratilgan asarlar, maqolalar va matbuot materiallari kiradi. O`z navbatida, Buxoro Respublikasi tarixshunosligining tadqiqotchisi F.H. Qosimovni asarlaridan⁹ foydalanildi. Bu borada yana X.Boltaboyev¹⁰, N.Naimov¹¹, U.Rashidov¹², Q.Rajabov¹³, B. Mirzoqulov¹⁴ kabi olimlarning maqola va tadqiqotlarida, asarlarida ushbu mavzu atroflicha o`rganilgan. BXSР yillarida harbiy va ijtimoiy islohotlar tarixshunosligini o`rganar ekanmiz bevosita tarix fanlari doktori, professor Sh. Hayitov¹⁵ va tarix fanlari nomzodi K. Rahmonovning tadqiqotlari¹⁶, maqola va monografiyalaridan foydalandik. Bundan tashqari, matbuot nashrlarida¹⁷, ”O`zbekistonning yangi tarixi” asarining birinchi va

⁷ Мухаммадали Балжувоний. Тарихи Нофеий (Фойдали тарих). –Т.: “Академия”. 2001.

⁸ Амир Саид Олимхон. Бухоро халқининг ҳасрати тарихи. –Т.: “Фан”. 1991.

⁹ Қосимов Ф.Ш. Бухоро Республикаси тарихшунослиги. Бухоро. 1996.

¹⁰ Болтабоев Х. Талабни қондирмаган инқилоб//Шарқ юлдузи. 1991. №1.

¹¹ Наимов Н. Амирнинг хазинаси. –Бухоро. 1995.

¹² Рашидов У.Ж. Бухоро Халқ Республикаси (1920-1924-йиллар). –Бухоро. 2003., Бухоронинг Россия билан иқтисодий ва сиёсий муносабатлари тарихидан (1900-1925). –Бухоро. 2013.

¹³ Ражабов Қ.Р. Бухорога қизил армия босқини ва унга қарши кураш. –Т.: “Маънавият”. 2002.

¹⁴ Мирзоқулов Б. Бухоро тарих зарварақларида. –Т.: “Лессон пресс. 2016.

¹⁵ Хайитов Ш. ва бошқалар. Бухоро Халқ Совет Республикаси: иқтисодиёт, ижтимоий сиёсат, маданий ҳаёт. –Бухоро. 2005; Шу муаллифдан. Бухоро Халқ Республикаси ва Германия: ҳамкорликнинг тарихий лавҳалари (1920-1924-йиллар). –Т.: “Фан”. 2004.

¹⁶ Раҳмонов К.Ж. Бухоро Халқ Совет Республикаси тарихи матбуот саҳифаларида (1920-1924-йиллар). –Т.: “Абу матбуот-консалт”. 2012.

¹⁷ Қиличев Р. “Отам босмачи эмасди”//Бухоро ҳақиқати. Бухоро. 1993-йил 13-феврал.

ikkinchikitoblarida¹⁸ XX asr boshlarida Buxorodagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar va harbiy harakatlar tarixi yoritilganligiga guvoh bo`ldim.

Mavzuning maqsad va vazifalari. Men tanlagan ushbu “1920-1924-yillarda BXSR hukumatining harbiy va ijtimoiy sohalardagi tub o`zgarishlarning tarixshunosligi” mavzusini o`rganishda ilmiy metodologiya asosida o`rganish maqsadi qo`yildi. Qo`yilgan maqsaddan kelib chiqib, quyidagi vazifalar belgilandi:

- Buxoroda amirlik va BXSR yillarida harbiy soha rivojini qiyosiy tahlil qilish;
- BXSR harbiy yo`nalishiga oid masalalarning istiqloq davri asarlarida yoritilishini o`rganish;
- BXSRda maishiy hayot va xotin-qizlar masalalari bilan bog`liq o`zgarishlarning tarixshunosligini ochib berish;
- Buxoro amirligi va BXSR davrida aholi salomatligi va sog`likni saqlash tizimi sohasidagi amalga oshirilgan tadbirlarni asoslash.

Mavzuning amaliy ahamiyati. Mazkur “1920-1924-yillarda BXSR hukumatining harbiy va ijtimoiy sohalardagi tub o`zgarishlarning tarixshunosligi” mavzusidagi tadqiqotim materiallaridan kelgusida akademik litsey va kasb-hunar kollejlarda o`tiladigan “Buxoro amirligining tugatilishi va BXSRning tuzilishi, uning faoliyati” mavzusini qo`shimcha materiallar bilan namunaviy dars o`tishda, qolaversa, kelgusida magistrlik dissertatsiyasini rasmiylashtirishda foydalanish imkoniyati mavjud.

Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi. Men tomonimdan tanlangan “1920-1924-yillarda BXSR hukumatining harbiy va ijtimoiy sohalardagi tub o`zgarishlarning tarixshunosligi” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi kirish, ikki bob, to`rtta reja, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro`yxatidan iborat hisoblanadi.

¹⁸ Ўзбекистоннинг янги тарихи. 1-китоб (Туркистон Чор Россияси мустамлакачилиги даврида). –Т.: “Шарқ”. 2000; Ўзбекистоннинг янги тарихи. 2-китоб (Ўзбекистон Совет мустамлакачилиги даврида). –Т.: “Шарқ”. 2000.

I bob. Buxoro Xalq Sovet Respublikasi hukumati yillarida harbiy islohotlar: tarixshunosligi va o`rganilish darajasi

1.1. Buxoro amirligi va BXSR yillarida harbiy soha rivoji: qiyosiy tahlil

XX asrning 20-yillarida Buxoroda siyosiy vaziyat nihoyatda faollashib, keskin tus oldi. 1920-yil sentabrda Buxoro amirligi Sho`ro Rossiyasi bolsheviklari boshchiligidagi qurolli kuchlar tomonidan ag`darildi. Bu “ozodlik olib kelgan” inqilob¹⁹ evaziga minglab buxoroliklarning begunoh qoni to`kildi. Shahar to`pdan ayovsizlarcha o`qqa tutilib, qattiq vayron etildi. Ushbu voqealargacha, ya`ni B. Mirzoqulovning “Buxoro tarix zarvaraqlarida” kitobida yozilishicha: ”1920-yil 10- avgustda Kogonda Ahmadjon Abdusaidov rahbarligida Butun Buxoro inqilobiy Qo`mitasi va Fayzulla Xo`jayev raisligida Xalq Nozirlar kengashi tashkil etildi. Qizil Armiya Eski Buxoroni 1920 –yil 2-sentabrda ishg`ol etgandan keyin yangi hokimyat idoralari Kogondan Buxoro shahri yaqinidagi amirning yozgi saroyi Sitorai Moxi Xossaga ko`chib o`tdi”²⁰.

1920-yil 6-8-oktabrida amirning yozgi saroyi Sitorai Moxi Xossada chaqirilgan Butun Buxoro xalq vakillarining birinchi qurultoyida joylardan saylangan 1950 delegat ishtirok etdi. Qurultoyda A.Muhiddinovning “Inqilobiy Buxoroning davlat qurilishi to`g`risida”gi ma`ruzasi tinglanib muhokama qilindi. Qurultoyda RSFSRning BXSRni mustaqil davlat sifatida tan olganligi e`lon qilindi. 8-oktabr kuni qurultoyning oxirgi yig`ilishida Buxoro Xalq Sovet

¹⁹ Қиличев Р. Отам босмачи емасди//Бухоро ҳақиқати. Бухоро. 1993. 13-феврал. –Б.2.

²⁰ Мирзоқулов Б. Бухоро тарих зарварақларида. –Т.: “Лессон пресс”. 2016. –Б.254.

Respublikasi tuzilganligi e'lon qilindi. Qurultoy davlat hokimyatining qonun chiqaruvchi oliy organi bo'lgani Buxoro Inqilobiy Qo'mitasi, Buxoro Xalq Nozirlar Kengashi dastlabki hukumat tarkibini uzil-kesil tasdiqladi va ularning vakolat muddatini navbatdagi qurultoygacha uzaytirdi.

U. Rashidov va O'. Rashidovlar ushbu masalada tadqiqot olib borib, 2013-yilda "Buxoroning Rossiya bilan iqtisodiy va siyosiy munosabatlari tarixidan (1900-1925)" nomli kitobni nashr qildirdilar. Ushbu kitobda aytilishicha: "1920-yil 3- noyabrda RSFSR va BXSР o'rtasida "Harbiy-siyosiy kelishuv" imzolanib, unga ko'ra, BXSРning o'z armiyasi yo'qligi sababli uning chegaralarini RSFSR qizil armiyasi qo'riqlaydigan bo'ldi. Chegaralarni qo'riqlayotgan RSFSR qo'shinlari BXSР inqilobiy qo'mitasiga va harbiy noziriga bo'ysundirildi.

1920- yil 5- sentabrda Turkiston fronti BXSР harbiy nozirligi ixtiyoriga 2 ta polk, 1 ta batalion va artileriya batareyasini berdi. Buxoro qizil armiyasini tuzish ancha qiyin kechdi. Chunki mahalliy aholi armiyaga kirishni istamadi"²¹. Davlat hokimyatining asosiy o'zaklaridan biri Ichki ishlar Nozirligi bo'lib, jamoat tartibi va fuqarolar xavfsizligini himoya qilishi shart edi. Shuning uchun ham 1920-yil sentabr boshlarida 300 kishilik militsiya bo'limi tashkil etildi.

Buxoroda amirlik va BXSР yillarida harbiy soha rivoji turlicha kechgan. Ushbu masalani qiyosiy tahlil qilish uchun turli manbalarni va matbuot materiallarini o'rganib tahlil qildik. Xususan, Buxoro amirligi davrida Buxoro harbiy askarlari safi nisbatan qisqartirilib, qo'shinda harbiy islohotlar tor doirada olib borilgan. XIX asrning 30- yillarida harbiy islohotlar bir muncha olib borilgan.

Xususan, "O'zbekistonning yangi tarixi" (Turkiston Chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida) 2-kitobida yozilishicha: "Amir Nasrullo (1826-1860)

²¹ Рашидов У., Рашидов Ў. Бухоронинг Россия билан иқтисодий ва сиёсий муносабатлари тарихидан (1900-1925). –Бухоро. 2013. –Б.13.

harbiy sohada ma'lum islohotlarga qo'l urdida, o'z qo'shinini bir muncha mustahkamladi. Buxoroda uzoq muddat yashagan, Zarashon harbiy okrugini boshqargan, Turkistonning harbiy quvvatini sinchiklab o'rgangan G.A. Arandarenko shunday yozadi: "Nasrulloxon davrida dala to'plari sezilarli darajada yaxshilangan edi, ular uchun ingliz harbiy nizomidan chala-chulpa xabardor bo'lgan afg'on to'pchilari xizmatga olinadi. Og'ir qurolli otliqlar - falkonetli xasabdorlar soni ham oshiriladi, piyodalar ko'paytirilib, to'plar himoyasida jangga kirish va qal'alarga hujum qilish qo'llana boshlaydi". Amirlik qo'shining asosini xasabdorlar va galabotirlar tashkil etar edi. 1868-yilga qadar bu ikki qo'shin turiga olinganlar bir umr xizmatda bo'lar edi. Piyoda sarbozlar, odatda, tinch sharoitda uylarida yashar, xaftada 4 kun (chorshanba va jumadan tashqari) erta tongda eshak bilan Buxoroga kelar va uch-to'rt soatlik mashqlarda qatnashib, yana qaytib ketardi. G.A. Arandarenko, shu vajdan, Buxoro "harbiy tizimida qorovullik xizmati mavjud emas"²², -deydi.

Muarrix Mullo Olim Maxdumning "Turkiston tarixi" kitobida ushbu masalaga to'xtalib quyidagi ma'lumotlarni keltiradi: "Erondan olib kelingan Abdusamad to'pchiboshi, bilimli, zakovatli kishi bo'lgan. U to'p va to'pxonalarning dala sharoitidagi harakat imkoniyatini oshirishga erishadi. To'plar, ularni tortib yuruvchi otlar guruhlanadi. Ma'lumki, bungacha to'plarni ho'kizlar sudrashi taomilda bo'lib kelgan edi. Amirlikda yollanma lashkarboshilardan foydalanishdan hech qachon qaytilmagan"²³.

"O'zbekistonning yangi tarixi" 1-kitobi (Turkiston Chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida)da quyidagi ma'lumotlar uchraydi: "Amir Nasrullo davrida va undan keyin ham to'pchiboshi qo'shinning bosh qo'mondoni hisoblangan. Bu harbiy ish muvozanatida otliq qismga nisbatan texnikaga ahamiyat berish ibtidosi bo'lganmi, har holda aniq bir nima deyish mushkul"²⁴.

²² Арандаренко Г.А. Досуги в Туркестане. 1874-1889, СП. 1889. –С.543. Қаранг: Ўзбекистоннинг янги тарихи. I том. (Туркистон Чор Россияси мустамлакачилиги даврида). –Т.: "Шарк". 2000. –Б.93-94.

²³ Мулла Олим Махдум Хожи. Тарихи Туркистон. –Т.: 1999. –Б.89.

²⁴ Ўзбекистоннинг янги тарихи. I том. Туркистон Чор Россияси мустамлакачилиги даврида. –Т.: "Шарк". 2000. –Б.93-94.

2005-yilda Sh. Hayitov, S. Badriddinov va K. Rahmonovlar tomonidan “Buxoro Xalq Sovet Respublikasi: iqtisodiyot, ijtimoiy siyosat, madaniy hayot” nomli kitob nashr qilindi. Ushbu kitobda Buxoro amirligi harbiy holatiga toʻxtalib, quyidagi maʼlumotlar keltirilgan: “XIX asrning 2-yarmida Oʻrta Osiyodagi xonliklar harbiy jihatdan zaif boʻlganligi haqiqat. Bu yuqoridagi maʼlumotlar ham asoslab, isbotlab turibdi. Shuning uchun ham xonliklar va Buxoro amirligi Rossiya taʼsir doirasiga tushib qoldi. Buxoro amirligi qoʻshin tuzilishi XIX asrning 2-yarmida quyidagicha edi:

“Toʻpchilar” (Artilleriya), “Kuban kazaklari”, “Shefskiy”, “Terskiy”, “Arabbachalar”, “Turkman favji”, “Sarbozlar”, “Gʻulombachchalar”, “Elnavkarlar”, “Nizomiy” kabi guruhlardan iborat boʻlib, ularga xizmat haqi uchun pul va turli inʼomlar berilgan. Toʻplar ikki turda boʻlib, dahanapur (ogʻzidan oʻqlanadigan) va dumbalapur (orqasidan oʻqlanadigan) kabi nomlar bilan atalgan”²⁵.

Buxoro amirligining XIX-XX asr boshlaridagi siyosiy tarixini yoritib beruvchi manbalardan biri hisoblangan Muhammadali Baljuvoniyni “Tarixi Nofei” asari boʻlib ushbu asar 2001-yilda chop ettirildi. Ushbu kitobda Buxoro amirligining harbiy holati quyidagicha taʼriflanadi: “Beshinchi fasl: Buxoroning nizomiy askari va asbobi harbiy siyosati haqida: Bilinglarkim, Buxoroning nizomiy va askariy quvvati boshqa davlatlarga qaraganda zaif va yengilroqdir. Chunonchi, bu davlatning askariyati faqat ikki yuz ming nafarga yetgan. Lekin shular orasida tajribali va jasur bahodurlari ham koʻp boʻlgan. Ammo urush asboblari, yaʼni har davlat uchun loyiq boʻlgan qurol-aslahalardan 40 ta toʻp, yuz adad pulemyot, 500 ming toʻpponcha va miltigʻi boʻlgan. Siyosat bobida Buxoro koʻp davlatlardan zaif turgan. Aslida, podsho askariyasi haqida gʻamxoʻrlik qilishi, ularga siyosiy ilmlarni, siyosiy kuch-quvvatni berishi lozim edi. Ammo achinarlisi shuki, qadim zamonda boshqa davlatlarda siyosiy ilm

²⁵ Хайитов Ш.А. ва бошқалар. Бухоро Халқ Совет Республикаси: иқтисодиёт, ижтимоий сиёсат, маданий ҳаёт. –Бухоро. 2005. –Б.49.

taraqqiy topmagan davrda Buxoro davlati bir buyuk davlatga aylanib bo'lgan edi. Bugungi kunga kelib esa, boshqa davlatlar yangi sanoat va fanlarga ega bo'lib, Buxorodek bir necha davlatlarni bosib olib, o'zlariga tobe qilganlar”²⁶.

Yuqoridagi ma'lumotlarni tahlil qilar ekanmiz ushbu adabiyotlarga tanqidiy nuqtai nazardan yondashishga harakat qilamiz. To'g'ri, Sovet bosqini arafasida Buxoro amirligi harbiy holati nihoyatda kuchsiz bo'lganligi manbalarda keltirib o'tilgan. Ammo Buxoroga Qizil armiya bosqini arafasida qo'shin sonini oshirish, qo'shirlarni kuchaytirishga intilishlar bo'lgan. Ushbu harakatlar Buxoro amiri Said Olimxon tomonidan olib borilgan. Ushbu harakatlar Buxoroda “qurolli qarshilik ko'rsatish” – qo'rboshilik harakatlari bilan bog'liq edi. Ma'lumki, 1920-yil avgust oyida Buxoro inqilobi tayyorlanib, sentabrda esa Buxoroga Qizil armiya hujum boshladi. Buxoro amiri Said Olimxon Buxoro shahrini tark etib, keskin janglardan so'ng, Vobkent, Shofirkon, G'ijduvon, Qiziltepa tumanlari va O'rtacho'l orqali Qarshi cho'liga chiqib ketdi. Amirning keyinchalik o'zi yozgan xotiralarida keltirilishicha, mabodo mubolag'a qilinmagan bo'lsa, yigirma besh ming nafardan iborat buxoroliklar (ularning safiga G'ijduvonda yana 10 ming nafar kishi qo'shildi.”

1991-yilda Buxoro amiri Said Olimxonning “Buxoro xalqining hasrati tarixi” kitobi chop etildi. Ushbu kitob bilan tanishish chog'ida quyidagi ma'lumotlarga duch keldik: “Buxoro amiri Buxorodan ketishi masalasini shunday asoslaydi: Musulmon bechoralar dushman daftaridan mol-dunyosini, farzandlarini tashlaganlaricha, nima qilishlarini bilmay, har tomonga qocha boshladilar. Shunga qaramay, bu bandayi ojiz to'rt kechayu kunduz dushmanga qarshi urushdim, qattiq jang qildim. To'p o'qlarining ko'pligi, bomba yog'dirishlar, talofat va xarobaliklar Buxoro shahrida ortib ketib, kambag'al beva-bechoralarni qattiq tashvishga solib qo'ydi. Shunda o'zimcha o'yladim. Bu bandayi ojiz ushbu Buxoroyi sharif shahridan ko'chishini ixtiyor etsam, shoyad shu sababdan xarobalikka bo'lgan sabablar yo'lini to'sib, faqiru-fuqaro bechoralarni bu jabr-

²⁶Муҳаммадали Балжувоний. Тарихи Нофеий. (Фойдали тарих). –Т.: “Академия”. 2001. –Б.30.

sitamlardan ozod qilsam va osoyishtalik baxsh etsam, degan andishada chahorshanba kuni tushdan keyin soat to'rtlarda foytunga o'tirib, misoli "hazrat Payg'ambar alayhissalom sunnati bo'lmish hijrat" kabi²⁷ ko'chishni ixtiyor etdim"²⁸.

Amir Sayyid Olimxon Qizil armiyaga qarshi urushish uchun ko'p say-harakatlarni amalga oshirdi. BXSР hukumati yillarida ham ushbu harakatlar sobiq amir tomonidan amalga oshirilgan. Manbalarga murojaat qilamiz.

Q. Rajabov 2002-yilda o'zining "Buxoroga qizil armiya bosqini va unga qarshi kurash (1920-1924)" nomli kitobini nashr qildirdi. Ushbu kitobda Buxorodagi harbiy holat, qo'rboshilar harakati, Buxoroga qizil askarlar hujumi masalalari atroflicha tahlil qilinadi. Xususan, muallif kitobida quyidagi ma'lumotlarni keltiradi: "Buxoroning markaziy qismlaridan shoshilinch chekinayotgan Said Olimxon Qarshi va G'uzordan ham o'tib, Boysun bekligi hududiga kirib bordi. Arxiv hujjatlarida keltirilishicha, sobiq amir Said Olimxonga yaxshi qurollangan 300 kishilik otliqlar, shu jumladan, Afg'oniston hukumatining vakili Muhammad Akbarxon boshchiligidagi 100ta afg'on sarbozi himoyasi ostida 1920-yil 10-sentabrda Boysunga yetib kelishdi. Ushbu ma'lumotlarni M. Irkayevo'zining "ИсториягражданскойвойнывТаджикистане" kitobida keltiradi. Biroq Said Olimxon o'z xotiralarida Boysun to'g'risida so'z yuritmay, balki Qo'rg'ontepaga borganligini tilga oladi"²⁹.

Buxoro amiri Said Olimxon o'zining "Buxoro xalqining hasrati tarixi" kitobida yozishicha, Said Olimxon Dushanbe va Qoratog'da ham bo'lgach, Hisor shahrini o'ziga qarorgoh qilib belgilaydi. Sharqiy Buxorodagi qurolli qarshilik ko'rsatish rahbari Ibrohimbek, Davlatmandbek, Fuzayl Maxdum, Eshon Sulton,

²⁷ Бу ерда амир Олимхон Бухорони тарк етишини худди пайғамбарнинг Маккани тарк етишга мажбур боълиб, Мадинага коъчганига қиёс қияпти.

²⁸ Амир Саййид Олимхон. Бухоро халқининг ҳасрати тарихи. –Т.: "Фан". 1991. –Б.15.

²⁹ Ражабов Қ. Бухорога қизил армия босқини ва унга қарши кураш. (1920-1924-йиллар). –Т.: "Маънавият". 2002. –Б.58-59.

Tog`ay Sari, Avliyoqulbek, Abdurahmonbek, Alimardonbek kabi nufuzli kishilar, urug` boshliqlari va beklari sobiq amir huzurida to`planishdi”³⁰.

Q. Rajabovning yuqorida keltirilgan kitobida yozilishicha, Said Olimxon harbiy sohada chora-tadbirlar ko`ra boshlaydi:

1.O`z lashkarlarini Hisor viloyatida to`playdi.

2.O`z lashkarlarining boshqaruv tizimini belgilab, harbiy boshliqlar tayinlaydi. Xususan, o`z lashkarlarining boshlig`i qilib harbiy vazir bo`lgan tog`asi Muhammad Saidbek Parvonachini, shuningdek, Abdulhafiz Parvonachi va Ibrohimbekni tayinlaydi. Ular Hisor viloyatida bolsheviklarga qarshi 6 oy davomida kurash va jang olib borishdi.

3.Said Olimxon harbiy kuch va qurol-yarog` so`rab, Afg`oniston amiri Omonullaxon huzuriga o`z vakilini jo`natgan. Afsuski, Afg`onistondan yetib kelgan yordamchi kuchlar, qurol-yarog`lar va harbiy aslahalar ham unchalik ko`p emas edi. Bundan tashqari, Said Olimxon harbiy yordam so`rab Angliya va Yevropa mamlakatlariga vakil yuboradi. Ammo ular tomonidan hech qanday amaliy yordam berilmadi. Muntazam armiyaning mavjud emasligi, qurol-yarog`larning yetishmasligi, zamonaviy harbiy mutaxasislarning deyarli yo`qligi va boshqa qator qiyinchiliklarga qaramasdan qisqa muddat ichida Sharqiy Buxoroda qizil askarlarga qarshi tura oladigan katta miqdordagi harbiy kuchlar to`plandi. Buxoro Xalq Respublikasi Revkomi nomiga jo`natilgan qizil askarlarning razvedka ma`lumotlarida aytilishicha, 1920-yil 23-noyabrda “Boysunda Bo`ri To`qsabo qo`mondonligida 7000 kishi (5 ta pulemyoti bilan), Denov shahrida 1000 kishi, Sariosiyoda 3000 kishi, Sangardak qishlog`ida (Yurchiga ketish yo`lida) 140 kishi, Baxchi qishlog`ida (Toshqirjondan 20 chaqirim janubi sharqda) Eshon Boshi qo`mondonligida 600 kishi, Darbandda 100 kishidan ortiq qo`shin” to`plandi. Ushbu 12 ming kishiga yaqin qo`shin 23-noyabrda Toshqo`rg`on tomonga yurish qilib, uni egalladi. Shunisi xarakterliki, ushbu hujjatda yozilishicha,“amir qo`shinlari Sharqiy Buxorodagi ko`ngillilar

³⁰ Амир Саййид Олимхон. Бухоро халқининг ҳасрати тарихи. –Т.: “Фан”. 1991. –Б.16-17.

hisobidan tuzilgan edi”. Amir Said Olimxon Ko`lob, Hisor, Dushanbe atrofida katta miqdordagi kuchlarni birlashtirishga muvaffaq bo`ldi. 1920-yil noyabr oyining o`rtalarida uning qo`shinlari Boysun, Darband, Sherobodni egallashdi.

4. Amir Said Olimxon Farg`ona vodiysidagi istiqlolchilik harakati bilan aloqani yo`lga qo`ydi. Chunki Qizil askarlarning katta miqdordagi harbiy kuchlari istiqlolchilarning ham o`z qo`shinini yaxlit qo`mondonlikostiga birlashtirishni taqozo qilar edi. Arxiv hujjatlarida keltirilishicha, Farg`onadan 4000 yigit sharqiy Buxoroga yetib kelgan. Hisordan Ko`lob viloyatiga kelgan Said Olimxon butun qo`shinlariga Mulla Muhammad Ibrohimbek Devonbegini lashkarboshi qilib tayinlaydi³¹.

Ushbu masala tarixshunosligini o`rganish jarayonida turli manbalarni tahlil qilamiz. 1996-yil U. Rashidov tomonidan “Buxoro tarixi masalalari” to`plamiga quyidagi “Buxoro Respublikasida qarshilik harakatining birinchi bosqichi (1920-1922-yillar)” nomli maqolasini chop qildirgan. Ushbu maqolada Buxorodagi harbiy-siyosiy vaziyat va amir faoliyatiga to`xtalib o`tilgan. Maqolada quyidagi ma`lumotlar keltiriladi: “Ibrohimbek Olimxon xizmatiga o`tib Qorovulbegi-qo`shin qo`mondoni unvonini oladi. U butun Loqay va Hisorda safarbarlik o`tkazadi. Natijada amir qo`shinlari 15 ming kishiga yetadi. Amir o`zi bilan olib kelgan oltinlar bu katta xarajatlarga yetmaydi. Shu bois, Dushanbedagi Hisor bekligi xazinasidan 1 mln so`m olindi va qog`oz pul chiqarishga qaror qilindi. Lekin Dushanbeda turli bo`yoqlar yo`qligi sababli 20 yashik chiqarilgan qog`oz pul oppoq holicha zarb etildi. Amir ixtiyorida otasi Abdulahadxon tirikligida London bankiga qo`yilgan 20 mln so`m pul qolgan edi xolos. Olimxon shu pullarga umid bog`lab, Buyuk Britaniyadan yordam so`raydi. Angliya 1920-yildan boshlab Mashhad va Qoshg`ar orqali amirga qurol-aslaha va boshqa anjomlar bilan yordam berishga vadalashadi”³².

³¹ Ражабов К. Бухорога қизил армия босқини ва унга қарши кураш. (1920-1924-йиллар). –Т.: “Маънавият”, 2002. –Б.58-59.

³² Рашидов У.Ж. Бухоро Республикасида қаршилиқ ҳаракатининг биринчи босқичи (1920-1922). // Бухоро тарихи масалалари. –Бухоро. 1996. –Б.99.

Yana ushbu masalada Q. Rajabov shunday fikrlarni keltiradi: “Buxoro Respublikasi Markaziy Revkomi va Xalq Nozirlar Sho`rosi raisi nomiga jo`natgan “mutlaqo maxfiy” ma’lumotnomada yozilishicha, 1921-yil 1-yanvarga kelib Buxoro amirining armiyasi 15000 kishidan ortib ketdi”.

Turli adabiyotlarni tahlil qilar ekanmiz amirlik tuzumi ag`darilgach, BXSR tashkil topib, hukumat tuzilgach, harbiy masalalarga ham e`tiborni kuchaytirganligiga guvoh bo`lamiz. Biz amirlik davrida harbiy masalaga e`tibor va islohotlar haqida yuqorida ma’lumotlarni tahlil qildik. BXSRda ushbu masalada qanday ishlar olib borildi? Shu masalada fikr yuritamiz.

BXSR hukumat rahbari Fayzulla Xo`jayev o`zining 3 tomlik “Tanlangan asarlari”ni yozib qoldirgan. Ushbu asarlarning 1-tomi 1976-yilda Toshkentda chop etilgan. Ushbu kitobda BXSRdagi harbiy holat, siyosiy tizim masalalari haqida jonli guvoh sifatida ma’lumotlar yozib qoldirilgan. Muallif asarida quyidagi ma’lumotlarni keltiradi: “Qizil Armiyani qurish masalasiga kelganda, men shuni ko`rsatib o`tishim kerakki, bu ishdagi bir qancha kamchiliklarga qaramay, bu ishlarning hammasi umuman yomon o`tkazilmadi. Gap shundaki, zamonaviy armiya qurishga Buxoroning Sovet hukumati birinchi kirishgan edi. Sovet hokimiyatiga qadar (bu yerda BXSR hukumati nazarda tutilgan bo`lsa kerak) armiya butunlay boshqacha negizda tuzilar edi. Umuman, Buxoroda harbiy xizmat hech qachon bo`lmagan. 1860-yildan beri amirning tarkibi kamaytirib qo`yilgan armiyasi turli yoshdagi yollangan kishilardangina tuzilar edi. Armiyaga, masalan, o`g`rilik, ichkilikbozlik va shu kabi jinoyatlar qilganligi uchun jazolash tariqasida ham zo`rlik bilan askar qilib olinar edi. Bu an`analar yangi boshlangan ishga anchagina to`squin bo`lib turdi. Shunga qaramay, qisqa vaqt ichida hukumat mamlakatda majburiy-harbiy xizmatni joriy qilishga va Qizil Armiyaning milliy qismlarini tuzishga muvaffaq bo`ldi”³³.

Fayzulla Xo`jaev o`z asarida harbiy holat, harbiy tadbirlar va islohotlar haqida ham quyidagi ma’lumotlarni keltiradi: Harbiy ishda Rossiya Qizil

³³ Файзулла Хўжаев. Танланган асарлар. III томлик. –Т.: 1976. I том. –Б.243.

armiyasidan o`rnak olib, Qizil Armiya tashkil etish, unda komanda berishni o`zbek tilida olib borish hamda aholining turmushi va rivojlanish darajasiga muvofiq keldigan o`zgartirishlarni ustavlarga kiritish lozim. Buning uchun birinchi navbatda, RSFSR Qizil ofitserlar maktablarini tashkil etish ishida faol yordam berish kerak (Fayzulla Xo`jaev BXSR armiyasini “qizil armiya” deb yozadi. Chunki shu davrda Buxoro Sovet Rossiyasi bosqiniga uchrab, Sovet qo`shinlari Buxoro hududida mavjud edi). BXSRda armiyada quyidagi islohotlar olib borildi:

1.Qizil Armiyaning shtati 2197 nafarga yetkazildi. Uning tarkibi deyarli Buxoro Xalq Respublikasining fuqarolaridan iborat. Kamandirlar tarkibi maktabidagi kursantlar soni 287 kishiga yetkazildi.

2.Armiya tarkibi umum-harbiy majburiyat bo`yicha olinayotgan yigitlar bilan to`ldirildi. Aholi soni hisobga olinmoqda. Eski xizmatchilar yoshlar bilan almashtirildi.

3.Siyosiy ish yaxshi yo`lga qo`yildi.

4.Ta`lim o`rgatish ishlari kuchaytirildi. Harbiy-ilmiy jamiyat tashkil etildi. Komandirlar tarkibi SSSRning oliy maktablariga yuborildi.

5. Buxoro Qizil Armiyasi zo`r berib milliylashtirilmoqda³⁴.

Muntazam milliy armiya tuzish, uni mahalliy mutaxassislar bilan ta`minlash to`g`risidagi taklif va mulohazalar davriy matbuotda ham yoritilgan. Xususan, BXSRning mahalliy nashrlari hisoblangan “Buxoro axbori” va “Ozod Buxoro” gazetalarining ma`lumotlari asosida yozilgan Sh. Hayitov, S. Badriddinov va K. Rahmonovlar tomonidan chop etilgan “Buxoro Xalq Sovet Respublikasi: iqtisodiyot, ijtimoiy siyosat, madaniy hayot” nomli kitobda quyidagi ma`lumotlar keltiriladi: “1922-yil 1-Buxoro harbiy qo`mondonlar kursi ochilib, unda o`zbek, turkman, tojik, qirg`izlardan iborat kursantlar ta`lim ola boshladi. 1920-1922-yillarda Buxoro Respublikasidagi 30 minglik armiyaning atigi 400 tasi mahalliy millat vakillari bo`lgan. Hukumat rahbarlaridan Fayzulla Xo`jayev, Usmonxo`ja, Atoulla Xo`ja, Abdulhamid Oripovlar “Qizil armiya qismlari Buxoro hududida

³⁴ Шу муаллиф. —Б.271-272.

turar ekan, respublika mustaqilligi faqat quruq soʻzdan iborat boʻladi”³⁵, - deb hisoblashardi.

Ushbu yuqoridagi tarixiy adabiyotlarni tahlil qilish davomida Buxoro amirligi va Buxoro Xalq Sovet Respublikasi davrlarida harbiy holat qanday boʻlganligi xususida maʼlumotlarni oʻrgandik. Koʻrinib turibdiki, ushbu masala koʻp tarixchilarning asarlarida, maqola va monografiyalarida atroflicha oʻrganilgan. Demak, mavzu tarixshunosligi muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ushbu BXSR tarixshunosligi masalasini tarix fanlari doktori, professor F. Qosimov boshlab bergan edi. Yuqoridagi asarlarda esa bu ishlar davom ettirilgan. Tarixchi olimlar U. Rashidov, Sh. Hayitov, Q. Rajabov, K. Rahmonov va boshqalar BXSR davridagi siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy voqealarni oʻz asarlarida atroflicha tahlil qildilar.

1.2. BXSR harbiy yoʻnalishiga oid materiallarning istiqlol davri asarlarida yoritilishi

Maʼlumki, Buxoro Xalq Sovet Respublikasi 1920-1924-yillar davomida mavjud boʻlgan. Ushbu davlatning hayoti, siyosati, iqtisodiy-ijtimoiy va madaniy masalalari bilan bir qatorda harbiy islohotlar, armiya masalalari mahalliy matbuotda eʼlon qilib borilgan.

Istiqlol davri asarlarida, gazeta va jurnallarida ham ushbu masalalar atroflicha oʻrganildi. BXSR hukumati davrida Buxoroda “Buxoro axbori” va “Ozod Buxoro” mahalliy gazetalari chop etilgan. Mustaqillik yillarida tarixchi olimlar Sh. Hayitov va K. Rahmonovlar tomonidan BXSRning mahalliy nashrlari hisoblangan “Buxoro axbori” va “Ozod Buxoro” gazetalarini tadqiq qildilar.

K.Rahmonov 2012-yilda “Buxoro Xalq Sovet Respublikasi tarixi matbuot sahifalarida” nomli kitobini chop ettirdi. Muallif ushbu kitobida keltirgan maʼlumotlarga koʻra: “1920-1923-yilgacha ”Buxoro axbori” gazetasi nashr etilgan

³⁵ Хайитов Ш.А. ва бошқалар. Бухоро Халқ Совет Республикаси: иқтисодиёт, ижтимоий сиёсат, маданий ҳаёт. –Бухоро. 2005. –Б.50.

bo`lsa, 1923-1929-yillarda “Buxoro axbori” gazetasi o`rniga “Ozod Buxoro” gazetasi chop etilgan. “Buxoro axbori” va “Ozod Buxoro” gazetalarda BXSrdagi harbiy holat va harbiylarning turmush tarzi bilan bog`liq muammolar ham yoritilgan. “Buxoro axborida” yozilicha: Millatning saodati uchun ikki narsa, birinchisi, ilmi-maorif, ikkinchisi, yaxshi va intizomli askar tashkil qilmak zarur”. Buxoro amirligi tuzumini ag`darish vazifasi, asosan, qizil askarlar yordamida bajarilganligiga alohida urg`u berilib, bundan keyin milliy-demokratik mustaqil davlatni barpo qilish tamal toshlaridan biri mahalliy xalq vakillaridan iborat qo`shin tuzish zarurligi qayd qilinadi. Davlat va siyosiy arboblardan Fayzulla Xo`jaev, Abduqodir Muhiddinov, Qori Yo`ldosh Po`latov, Mahmud Said Ahroriy, Abdulhamid Oripov, Abbas Aliyev kabilarning matbuotda aynan shu muammoga bag`ishlangan salmoqli maqolalari chop etilgan. K.Rahmonovning yuqorida keltirilgan kitobida yozilishicha: ”A.Muhiddinovning “El askari-qizil askar”, A.Aliyevning “5-fevral-armiyaga safarbarlik kuni”, S.Ahroriyning “harbiy ishlarimiz ham almashsin”, F.Xo`jaevning “Dushmanlarimiz bilsunlar”, Q.Y.Po`latovning “Mustaqil bir mamlakat qanday bo`lur?” kabi maqolalari milliy hukumatning bo`ljak armiyasi qanday bo`lishi kerakligi, uni yaratish asoslari, muammolari bilan bog`liq keng qamrovli masalalarni o`z ichiga oladi”. Q.Y.Po`latov: “mamlakat mudofaasi uchun oqcha, ozuqa va molni ayamaslik kerak”,- deb yozsa, S.Ahroriy: “Endigi vazifa rasmiy hujjatlar yuritishdagi, komanda berishdagi ruscha muomala o`rniga o`zbekcha muloqotni joriy qilishdur”. A.Muhiddinov o`z maqolasida “qizil armiya qismlari Buxoro hududida turar ekan, respublika mustaqilligi faqat so`zdan iborat bo`lib qoladi” kabi fikrlarni singdirgan. BXSr harbiy ishlar xalq nozirligi (nozir- Fayzulla Xo`jaev) 1921-yil 1-fevralda quyidagi harbiy qismlar va boshqarmalarni tashkil qilish to`g`risida qaror chiqardi: nozirlik shubasi, komendant, musiqa, xo`jalik va ishchi rotalari; Buxoro, Chorjo`y, Karmana, Qarshi, Shahrisabz, Hisor, Sherobod viloyatlari harbiy nozirliklari; komandirlar tayyorlaydigan 1-Buxoro harbiy maktabi“ kabi ma`lumotlar keltiriladi arxiv

hujjatlarining birida. 1921-yildan boshlab, 5-fevral sanasi BXSRda milliy armiya kunini bayram qilish an'anasini tashkil qilish harakati bo'lganligi nazarda tutiladi³⁶.

K. Rahmonov ushbu ma'lumotlarni, asosan, "Buxoro axbori" va "Ozod Buxoro" gazetalari nashrlaridan olingan materiallar asosida keltiradi. Muallifning ushbu kitobidagi malumotlarga ko'ra, matbuot sahifalarida harbiy soha tarixi keng yoritilgan. Xususan, madbuot sahifalarida BXSRda harbiy sohada islohotlar, chora-tadbirlar o'tkazish masalalari yoritiladi. Rasmiy hujjatlarni yuritishda va komanda berishda ruscha muomala o'rniga o'zbekcha komanda berishni joriy qilish, armiyaning milliy ramzlarini yaratish masalasi ko'rilgan.

Mardlik va jasorat ko'rsatgan askarlarni taqdirlash uchun nishon joriy qilish, milliy armiyani mustahkamlash oyi tadbirlarini o'tkazish kabilar gazetalarda keng targ'ib qilindi va yoritildi. "Buxoro axbori"da: Buxoro inqilobiy qo'mitasi ikki turda nishon tasis etdi: Birinchi nishon tillodan bo'lib, 8 qirrali yulduz, uning ichida hukumatning bayrog'i. Ikkinchi nishon ham xuddi shu tartibda yasilib, faqat nuqradan qilingan",-deb yoziladi. Tarixchi Q.Rajabovning malumotlariga qaraganda, ushbu nishonlarning rasmi bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Devoni huzuridagi arxivda saqlanmoqda. Hukumat harbiylar moddiy ahvolini yaxshilash choralarini ham ko'rgan. Bu haqida gazetalarda: "Nozirlar sho'rosi harbiy va dohiliya ishlari nazorati ixtiyorig'a 7 pud (4000so'm) oltin berdi, bu oltin askarlar va militsiyag'a keragicha sarf etilg'usidir". "Askarlar joylashg'on kazarmalarni ta'mirlash uchun iqtisod sho'rosi tarafidan 183 ming tanga ajratildi" kabi ko'plab malumotlar keltiriladi. Askarlarning moddiy shart sharoitlarini yaxshilash bilan birga ular ma'naviyatini ko'tarish, marifatli qilish masalasi ham gazetalarda chop etilgan bir qator maqolalarda qayd qilinadi. Jumladan, gazeta muxbirlaridan biri Bekboy armiya va militsiyadagi manaviy-axloqiy tarbiya to'g'risida fikr yuritarkan,

³⁶ Раҳмонов К.Ж. Бухоро Халқ Совет Республикаси тарихи матбуот саҳифаларида (1920-1924-йиллар). –Т.: “Абу матбуот-консалт”. 2012. –Б.82-83.

“askarlarning past darajadagi savodxonligi (ayniqsa, mahalliy xalq vakillari orasida) sababi – “bu butun ilm Buxoro shahridagi madrasalarg`a berilub, xalqdagi maorifg`a ehtiyoj ahamiyatsiz qoldirilg`onligi asoratidir”, - deb yozadi o`zining maqolalaridan birida”³⁷.

Buxoro Xalq Sovet Respublikasidagi 30 minglik armiyaning 1920-1922-yillardagi sonida atigi 400 kishi mahalliy millat vakillari bo`lgan.

“Buxoro axbori” va “Ozod Buxoro” gazetolari materiallari ma’lumoticha, milliy armiyani istiqbolda respublika hududida ishlab chiqariladigan qurollar bilan ta’minlash ham rejalashtirilgan edi. 1922-yilda harbiy nozirlik tomonidan amir zamonidan qolgan miltiq va to`plarni tamirlashga buyruq berilgan. Ushbu buyruq BXSR harbiy ishlar noziri Abdulhamid Oripov tomonidan imzolangan³⁸.

Ushbu gazetalar materiallari va arxiv hujjatlari asosida tarix fanlari doktori, professor Sh. Hayitov, S. Badriddinov va K. Rahmonovlar 2005-yilda “Buxoro Xalq Sovet Respublikasi: iqtisodiyot, ijtimoiy siyosat, madaniy hayot” deb nomlangan kitobni nashr qildilar. Ushbu kitobda mualliflar tomonidan BXSRdagi harbiy vaziyat va harbiy islohotlar hamda tadbirlar haqida juda muhim ma’lumotlar keltiriladi: “Matbuot nashrlari Respublikaning oxirgi yillarida (1923-1924-yillar) askarlar ta’minoti biroz o`sganligi, ular savodxonligi va harbiy tajribasi ortganligi, harbiylar uchun qurilgan yashash binolari bunyod etilganligi to`g`risida bir qadar ijobiy ma’lumotlarni keltiradi. Biroq, milliy hukumat rejalashtirgandek, mahalliy xalqlar vakillaridan muntazam armiya tuzish, uni zamonaviy harbiy aslahalar bilan qurollantirish, mamlakat mudofaa qobiliyatini mustahkamlash, mahalliy harbiy tribunalni³⁹ shakllantirish vazifalari bajarilmagan. Jumladan, harbiylar sog`ligini nazorat qilish ham yetarli yo`lga qo`yilmagan, harbiy shifokor mutaxassislar yetishmagan”⁴⁰.

³⁷ Шу муаллиф. –Б.83-84.

³⁸ Шу муаллиф. –Б.84-85.

³⁹ Ҳарбий трибунал – ҳарбий жиноятларни суд қилиш ҳаёти бўлиб, БХСР йилларида бу атама ҳарбий идорага нисбтан ишлатилиб, у Марказдан юборилган коммунистлар қўлида бўлган.

⁴⁰ Ҳайитов Ш ва бошқалар. Бухоро Халқ Совет Республикаси: иқтисодиёт, ижтимоий сиёсат, маданий ҳаёт. –Бухоро. 2005. –Б.52-53.

Tarix fanlari nomzodi, dotsent K. Rahmonovning yuqorida keltirilgan kitobida yozilishicha: “BXSR hukumatiga muxulifatda boʻlgan, qizil askarlarga qarshi kurashayotgan ozodlik harakatining ishtirokchilari, ularning harbiy harakatlari, faoliyati, shaxsiyati, kurash jarayonidagi psixologik holatlari, taqdirlari shoʻro mafkurasi talablaridan va mezonlaridan kelib chiqib, “Buxoro axbori” va “Ozod Buxoro” gazetalarida “bosmachilik” sifatida talqin qilingan. Shuning uchun BXSR Xalq Nozirlari Shoʻrosi raisi va ayrim hukumat azolari hamda gazeta muxbirlarining bu masalaga taalluqli boʻlgan barcha maqolalari ham mafkuraviy andazada yozilgan”⁴¹. Sovetlarga qarshi Buxorodagi qurolli qarshilik koʻrsatish masalalari bevosita BXSR yillari bilan bogʻliq hisoblanadi. Bu masalaga keyinroq toʻxtalishni joiz topdik.

Sh. Hayitovning yuqorida keltirilgan kitobida yana quyidagi maʼlumotlar tahlil qilinadi: “Respublikada harbiy anʼanalarni vujudga keltirish, askar va militsiya maʼnaviyatini koʻtarish uchun bir qator tadbirlar oʻtkazilgan. 1921-yildan boshlab, 5-fevral Respublikada “umumiy safarbarlik kuni” sifatida nishonlangan. 1923-yil 20- avgustdan 20- sentabrga qadar Buxoro Respublikasida milliy armiyani mustahkamlash oyi oʻtkazilgan. Respublikaning toʻrtinchi yilida askarlar taʼminoti biroz oʻnglangan, savodxonligi, harbiy tajribasi ortgan boʻlsada, armiyada juda katta kamchiliklar bor edi. Avvalo, harbiy xizmatchilarning asosiy qismi (zobit va askarlar) yevropaliklardan iboratligicha qolgandi. Said Ahroriyning yozishicha, 1924-yilga kelib: ”Yerli Buxoro qizil askari ikki polk (2000 kishi) boʻlgan”. Respublikaning birinchi yilida 30 mingdan 400 kishi, toʻrtinchi yiliga kelib esa, butun boshli bir armiyada 2000 jangchi mahalliy aholi vakili boʻlganligi quvonarli hol emasdi. Oʻsha davr matbuoti bilan tanishar ekanmiz: “Chorjoʻy Shoʻbasi militsioneri Roʻzimurod Rahmat oʻgʻli mast boʻlib, oʻziga berilgan miltiqni yoʻqotgan. U miltigʻini yoʻqotgani uchun jumhuriyat umumiy hibsxonasiga 1 yilga qamoqqa hukm qilingandi”. Ushbu holatga oʻxshash voqealar Buxoro Respublikasi armiyasida boʻlib turganligi

⁴¹ Раҳмонов К. Бухоро Халқ Совет Республикаси тарихи матбуот саҳифаларида. –Т.: 2012. –Б.85.

bu askarlar, xalq militsiyasida savodxonlik past darajada ekanligini, ma'naviy va axloqiy tarbiya ishlarida ham ayrim kamchiliklar ko'zga tashlanganligi mahalliy matbuot nashrlarida yoritilgan.

“Askariy kazarma imoratlari qilg'usi tashkilot tarafidan imorat qilish uchun ko'p miqdorda berilgan pullar o'zlashtirilgani sababli qish sovug'i yaqinlashib, askarlar kazarmasiz qolg'anlar” kabi ma'lumotlarni “Buxoro axbori” sahifalaridan o'qiymiz. Armiyada askar va zobitlarning sog'lig'i masalasida ham yetarli g'amxo'rlik qilinmagan. Chunki yuqori malakali harbiy shifokorlar yetishmasligi, ayni o'sha 1922-1923-yillarda Buxoroda “mollariya” (“tan varajasi”, “Buxoro varajasi”) kasalligi tarqalganligi bunga sabab bo'ldi. “Jangchilarimiz orasida mollariya kasalligi tarqalishi tufayli ularni davolash uchun 36 ming oltin oqcha ajratildi. Ular italyan usulida davolanadurlar”,- deyiladi gazetada.

Respublikada 1922-yil oxiridan iqtisodiy ahvol og'irlashgan. Bu holatni 2 yil xalqqa soliq solinmay, soliq tizimi joriy qilinganidan, maorif noziriligiga ajratilgan mablag'lar kamaytirilganligidan, davlat aparatini ikki barobargacha qisqartirish tomon yo'l tutilishi kabi omillardan bilish mumkin. Ayni paytda, harbiy kurslarda tahsil olayotgan kursantlar va armiyadagi askarlarning oilasi ham iqtisodiy jihatdan qiynalgan. Fayzulla Xo'jayev hukumati esa mahalliy millat vakillarini armiyada saqlab qolish uchun mumkin qadar choralar ko'rgan.

“Harbiy kurs talabalari qaynotalaridan, agar yaqin fursatda qaytib kelmasang, xotiningni kutmagil, man uni o'z uyimga qaytarib olaman. Chunki ozuqasi yo'q, o'tini yo'q, kiyimi yo'q mazmunida xat olyaptilar. Mana shu mazmunda yozilg'on maktublardan stol usti to'lib qoladir. Kursantlar esa besh kunlik, bir haftalik javob so'rab arizalarini qalashtirib tashlamishlar”,- deb yozadi “Buxoro axbori” gazetasi.

Yuqoridagilardan tashqari, harbiy kooperatsiyani tashkil etish, 1- Buxoro to'pchilari diviziyasini tuzish kabilarda bir qator to'siqlar vujudga kelib va kamchiliklarga yo'l qo'yildi. Nima bo'lishidan qat'iy nazar BXSR o'zining to'rt yillik tarixi davrida milliy qurolli kuchlarni shakllantirishga harakat qildi.

Respublika rahbariyati tomonidan intizomli milliy armiya mustaqillikning asosiy omili va garovi deb hisoblaydi”⁴².

Ushbu materiallarda BXSrdagi harbiy holat atroflicha yoritilgan. “Buxoro axbori” va “Ozod Buxoro” gazetalari BXSrdagi harbiy o`zgarishlar tarixshunosligida muhim manba bo`lib xizmat qiladi.

Buxoro amirligi davri va BXSrdagi harbiy holat, harbiy islohotlar, Buxoroga qizil askarlar bosqini, Buxoro vohasida Sho`rolarga qarshi qurolli qarshilik ko`rsatish harakatlari masalalari mustaqillik davrida chop etilgan kitob va maqolalarda yoritildi. Rejamizni yoritishda Buxoro Respublikasi tarixshunosligining tadqiqotchisi F.H. Qosimovning asarlari, X. Boltaboyev, N. Naimov, U. Rashidov, Q. Rajabov kabi olimlarning kitoblari bilan tanishamiz. Bundan tashqari tarix fanlari doktori Sh. Hayitov va tarix fanlari nomzodi K. Rahmonovlarning tadqiqotlari, maqola va monografiyalari materiallarini tahlil qilamiz.

Jumladan, 1996-yilda chop etilgan F.Qosimov muharrirligidagi “Buxoro tarixi masalalari” deb nomlangan maqolalar to`plamida F. Qosimov va U. Rashidov “Buxoro amirligining tugatilishi” nomli maqola e`lon qildilar. Ushbu maqolada quyidagi ma`lumotlar uchraydi: “Markazdan tegishli ruxsat olingach, M.V.Frunze 1920-yil 12-avgustda amirlikni tugatish maqsadida to`rt guruhdan iborat harbiy korpus tuzish to`g`risida farmon berdi. Chorjo`y, Kattaqo`rg`on va Samarqand guruhlaridan iborat bu qo`shinlar yagona Samarqand – Buxoro bo`limiga bo`ysundirildi. Samarqand – Buxoro gruppasining shaxsiy tarkibi 7 ming piyoda, 2.5 ming otliq askar, 5 ta og`ir arteleriya, 25 ta yengil to`p, 5 ta broneavtomobil, 220 ta zambarak, 5 ta bronopoyezd va 2 ta aeroplardan iborat edi. Amirlik armiyasida 16 ming sarboz bo`lib, safarbarlik e`lon qilinsa, 28-30 ming xalq navkari to`plash mumkin edi. Bu armiyada 55 ta eskirgan to`p va 12 ta pulemyod bor edi. Tirik kuchlar nisbatiga qaraganda amir armiyasi son jihatdan

⁴² Хайитов Ш. ва бошқалар. Бухоро Халқ Совет Республикаси: иқтисодиёт, ижтимоий сиёсат, маданий ҳаёт. –Бухоро. 2005. –Б.53-54.

ko`proq bo`lsada, ammo texnik va harbiy mahorat jihatdan Qizil armiya ustunligi muqarrar edi”⁴³.

Keyinchalik Buxoro amirligi taqdiri bizga ma’lum hisoblanadi. Mustaqillik yillarida 2001-yilda nashr qilingan Muhammadali Baljuvoniyniing “Tarixi Nofei” nomli kitobida Buxoro nizomiya askarining tarkibi berilgan: “Buxoro nizomiya askarining nizomi yeti favj (guruh, dasta)dan iborat edi. Avval to`pchilar, keyin otliq qozoqlar, uchinchi shefskiy, to`rtinchi terski, beshinchi arabbachcha, oltinchi turkman favji va yettinchi sarbozlar turardilar. Turk hamda Sarboz firqasining bir qismi piyoda, qolgani esa otliq edi. Otliq qozoq firqqasini “Qozonskiy” ham deb atardilar”⁴⁴.

Yuqorida keltirilgan ma’lumotlarda, amirlik davri harbiy holati haqida ma’lumot keltirdik. Endilikda Buxoro Xalq Sovet Respublikasi yillarida harbiy holat qanday edi? Ushbu masala tarixshunosligiga to`xtalamiz.

Xususan, Sh. Hayitov va boshqalar ham mualliflikda 2005-yilda nashr qilingan “Buxoro Xalq Sovet Respublikasi: iqtisodiyot, ijtimoiy siyosat, madaniy hayot” nomli kitobda Buxoro Xalq Sovet Respublikasidagi 1920-1924-yillarda iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, madaniy va maishiy hayot va o`zgarishlar haqida fikr yuritadilar. Jumladan, ushbu kitobda harbiy sohadagi o`zgarishlar haqida quyidagi ma’lumotlar kiritiladi: ”Chor Rossiyasi bosqini davrida ham amirlik armiyasida jiddiy islohotlar o`tkazilmadi. Buxoroning so`nggi amiri Said Olimxon zamonida (1910-1920) Buxoro harbiy garnizonidagi qo`shinlar soni 12 ming kishidan oshmas, armiyada bronetransportyor, aeroplan (aviatsiya), zamonaviy artilleriya qurollari yo`q edi.

Muntazam milliy armiya tuzish, uni mahalliy mutaxassislar bilan ta’minlash masalasi BXSR hukumat rahbarlari dasturida mavjud bo`lgan. 1920-1922- yillarda Buxoro Respublikasidagi 30 minglik armiyaniing atigi 400 tasi mahalliy millat vakillari bo`lgan. Hukumat rahbarlaridan F.Xo`jayev, Usmonxo`ja, Atoulla

⁴³Қосимов Ф., Рашидов У.Ж. “Бухоро амирлигининг тугатилиши//Бухоро тарихи масалалари. (Мақолалар тўплами). –Бухоро. 1996. –Б.77.

⁴⁴ Мухаммадали Балжувоний. Тарихи Нофей. –Т.: “Академия”. 2001. –Б.56.

Xo`ja, Abdulhamid Oripovlar “qizil armiya qismlari Buxoro hududida turar ekan, respublika mustaqilligi faqat quruq so`zdan iborat bo`ladi”,- deb hisoblashardi.

BXSR Markaziy Ijroiya Qo`mitasining birinchi raisi Usmonxo`ja Po`latxo`jayev (1890-1968) 1922-yilda Afg`onistonga borib, inglizlar konsuli bilan uchrashishga harakat qilgan. Maqsad, oltin barobarida inglizlardan kelgusida tuzilajak Buxoro milliy armiyasi uchun zamonaviy qurol-yarog`lar sotib olish bo`lgan. 1922-yildayoq 1-Buxoro harbiy qo`mondonlar kursi ochilib, unda o`zbek, turkman, tojik, qirg`izlardan iborat kursantlar ta`lim ola boshladi”⁴⁵.

Matbuot organi hisoblangan “Buxoro haqiqati”ning 1997-yil 20-dekabr sonida N. Naimov tomonidan “Markazga jo`natilgan maktublar” nomli maqola e`lon qilingan. Ushbu maqolada quyidagi ma`lumotlar uchraydi: “1923-yil Buxoroda F.Xo`jaev Moskvaga Butunittifoq Markaziy Ijroiya Qo`mitasi (BMIK) raislaridan biri sifatida o`z vazifasini bajarish uchun ketadi. Uning o`rnida qolgan Atoulla Xo`ja va siyosiy maslakdoshlari Buxorodagi rus vakili oldiga: “bosmachilar”⁴⁶dan musodara qilingan qurollarni milliy armiya ixtiyorida qoldirish, “bosmachi” sifatida asir olinganlarga respublikaning o`z sudida jazo berish kabi keskin talablarni qo`yadilar. Chunki, asosan, Yevropa vakillaridan iborat harbiy hukm (tribunal) muhokamasi arzimagan gunoh uchun ham otuv, o`lim jazosini qo`llar edi. Natijada, bolsheviklashtirish siyosatidan norozi bo`lgan mahalliy hukumat a`zolari va ba`zi askarlar o`z qurol yarog`larini “bosmachilar”ga sotgan yoki hadya qilgan”⁴⁷.

Qahramon Rajabov tomonidan 2002-yilda chop etilgan “Buxoroga Qizil Armiya bosqini va unga qarshi kurash: tarix haqiqati (1920-1924 yillar)” kitobida Buxoro Respublikasidagi harbiy siyosiy vaziyat, qurolli qarshilik ko`rsatish harakati, qo`rboshilar faoliyati haqida ma`lumotlar keltiriladi. Kitob bilan tanishar ekanmiz quyidagi ma`lumotlarga duch keldik: “Buxoro Respublikasidagi

⁴⁵ Хайитов Ш. ва бошқалар. Бухоро Халқ Совет Республикаси: иқтисодиёт, ижтимоий сиёсат, маданий ҳаёт. –Бухоро. 2005. –Б.49-51.

⁴⁶ “Босмачилар” – аслида қуролли қаршилик кўрсатиш (Шўроларга, қизил армияга қарши) ҳаракати иштирокчилари. Шўролар томонидан “босмачи” деб талқин қилинган.

⁴⁷ Наймов Н. “Марказга жўнатилган мактублар”//Бухоро ҳақиқати. 1997-йил 20-декабр.

istiqlolchilik harakatining yo`lboshchilari turli siyosiy qarashlardagi, o`zgacha fe'l-atvorli, jasur va qaysar kishilar edi. Harbiy qo`mondonlar orasida amir huzurida yirik amaldor bo`lib turgan saroy ayonlari va lashkarboshilardan tortib, Buxoro Respublikasi hukumatining yuqori lavozimlarida ishlagan ko`plab taniqli davlat arboblari, mashhur ziyolilar va jadidlar, hatto Turkiyadan kelgan harbiy zobitlargacha bor edi”.

Ushbu kitobda qo`rboshilardan: Ibrohimbek (sharqiy Buxoroda), Mulla Abdulqahhor (1884-1924) G`arbiy Buxoroda, Davlatmandbek Sharqiy Buxoroda, Fuzayl Maxdum Sharqiy Buxoroda va Qorateginda, Hamro Polvon Romitanda faoliyat yuritganlar. Hatto qo`rboshilar orasida ayol kishi bo`lgan Nodira Qiz haqida ma`lumotlar mavjud. Kitobda yana shunday ma`lumotlar uchraydiki: “Buxoro Respublikasi Markaziy Revkomi va Xalq Nozirlar Sho`rosi raisi nomiga jo`natilgan “mutlaqo maxfiy” ma`lumotda yozilishicha, 1921-yil 1-yanvarga kelib Buxoro amirining armiyasi 15000 kishidan ortib ketdi. Qisqa muddat ichida Said Olimxon o`z armiyasi miqdorini 1921-yil 8-yanvardagi razvedka ma`lumotlariga qaraganda 25000 kishiga yetkazgan. 5000 qilish mo`ljallangan. 1921-yil yozida Fayzulla Xo`jayevning topshirig`i bilan Dushanbega kelgan Buxoro hukumatining Favqulodda Muxtor vakili Ota (Otaulla) Xo`jaev boshchiligidagi komissiya Sharqiy Buxorodagi istiqlolchilik harakati vakillari bilan aloqa o`rnatish va qo`rboshilar rozilik bildirsa ikki o`rtada shartnoma tuzish kerak edi. Qo`rboshilarning maqsadi muqaddas Buxoro hududidan bosqinchi qizil armiyaning olib ketilishi bo`lgan. Qo`rboshilar sovet rejimi o`rniga mustaqil Buxoro jumhuriyati amalda tan olinishini, Buxorodan Rossiyaga talab ketilgan moddiy boyliklarni o`z qonuniy merosxo`rlariga qaytarishni, Buxoro ichki ishlariga Rossiyaning aralashmasligini talab qilishgan. 1921-yil 17-sentabrda Sharqiy Buxoroda Qoraqamish qishlog`ida qurultoy bo`ldi. Qurultoyda 7000 dan ortiq istiqlolchi qatnashgan. Unda BXSRuning Favqulodda Muxtor vakili bilan qo`rboshilar o`rtasida tuzilgan tinchlik shartnomasiga muvofiq o`n kun ichida qizil askarlar qo`mondonligi Buxorodan

o`z qo`shinlarini olib chiqib ketishi kerak, aks holda istiqlochilar butun jabha bo`ylab hujumga o`tishga qaror qildilar”⁴⁸.

⁴⁸ Ражабов Қ. Бухорога Қизил армия босқини ва унга қарши кураш. –Т.: “Маънавият”. 2002. –Б.26,70,72.

II bob. 1920-1924-yillarda ijtimoiy o'zgarishlar tahlili

2.1. Buxoro Xalq Sovet Respublikasida maishiy hayot va xotin qizlar masalasi bilan bog'liq o'zgarishlarning tarixshunosligi

Ma'lumki, 1920-yilning 6-8-oktyabrida e'lon qilingan Buxoro Xalq Respublikasi 1420 kun yashadi. Sovet davrida respublikadagi siyosiy, iqtisodiy-agrar, madaniy-marifiy, ijtimoiy hayotga bag'ishlab o'nlab asarlar yozildi, nomzodlik va doktorlik disertatsiyalari himoya qilindi. Xotira parchalari, hujjatlar to'plamlari chop etildi. Lekin tadqiqotlar va asarlar hukmron sovetcha mafkurada bo'lib, masalaga sinfiylik, partiyaviylik prinsiplari asosida yondashildi. BXSR tarixi mavzusida sovet davrida yaratilgan tadqiqotlarning umumiy tahlili shuni ko'rsatadiki, ular bugungi kun talablariga javob bermay qoldi. Buning ustiga ko'pgina muammolar u davr tadqiqotlari doirasidan chetda qolgan.

Tarixshunos olim F.H. Qosimov ta'kidlaganlaridek: “Bu yo'l ravon emasdi. Uning asosiy bosqichlari qanday kechdi? Sharqdagi yangi sovet davlati haqidagi ilmiy tasavvur, tarixiy bilim qanday shakllandi va rivojlandi? O'zbekiston mustaqilligi davrida muammo tarixshunosligidagi yangilik va burilishning mohiyati nimada?”⁴⁹ kabi savollarga javob toppish payti keldi. F.H. Qosimov ayni paytda Buxoro Xalq Respublikasining tarixiy tadqiqotchisi, hamda tarixshunosi sifatida qalam tebratish kabi xayrli ishni bajardi.

Q. Rajabov va U. Rashidov hamda SH. Hayitov va K. Rahmonovlarning maqola va kitoblari BXSR ijtimoiy hayotini yoritishda muhim ahamiyatga ega. M. Ochilov boy arxiv hujjatlari va o'sha davrdavriy matbuot materiallariga tayangan holda Respublikadagi iqtisodiy rivojlanish tamoyillarini ko'rsata olgan. Buxoroda amal qilib kelgan feodal monarxistik xo'jalik o'rniga erkin iqtisodiyotini vujudga keltirish, uning omillari ko'rsatilgan. BXSR hukumat rahbarlari tomonidan ijtimoiy-maishiy islohotlar olib borilgan edi. Matbuot nashrlarida⁵⁰ va

⁴⁹ Қосимов Ф.Ҳ. Бухоро Республикаси тарихшунослиги. –Бухоро. 1996. –Б.5.

⁵⁰ Матбуот нашрлари маълумотлари асосан Ш. Ҳайитов ва К. Раҳмоновларнинг “Бухоро ахбори” ва “Озод Бухоро” газеталари нашрларидан олинган материаллари асосида ёзилган китоб ва монографияларидан олинган.

yuqorida nomlari keltirilgan tarixchi olimlarning kitob va maqolalarida ushbu masalalar yoritilgan.

Buxoro Xalq Respublikasi hukumatiga amirlik tartibidan nafaqat iqtisodiy, balki madaniy-maishiy qoloqlik ham meros bo`lib qoldi. Bundan tashqari, qizil askarlar Buxoroni zabt etganlarida qadimiy tarixiy obidalar, aholi uy-joylari, bino va inshootlar katta zarar ko`rgan edi. Sobiq amirlikning poytaxti yarim vayrona holatga kelgan, ekologik muhit, ichimlik suvi muammosi, bezgak (varaja), rishta kabi kasalliklardan aholi qattiq azob chekardi. BXSR hukumati tomonidan aholining maishiy hayotini yaxshilash, sog`liqni saqlash masalalariga katta ahamiyat berila boshlangan.

Xususan, Fayzulla Xo`jayevning III tomlik asarlarining I tomida shunday ma'lumotlar keltiriladi: "Buxoroda yangi usul maktablari ochish, gazeta va jurnallar nashr etish, Buxoro xalqining siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy saviyasini yoppasiga ko`tarish maqsadida yosh buxoroliklarni Yevropaga o`qishga yuborishga, ayrim qabilalar o`rtasida shu vaqtgacha davom qilib kelayotgan dushmanlik munosabatlarini tugatish va ularning tarqoq kuchlarini bir markazda to`plashga, Buxoroda hokimiyatni demokratiya asosida tashkil etish uchun Eski Buxoroda inqilobiy fikrdagi kishilar komiteti 1908-yildan buyon intilmoqda"<sup>51</sup>, deb ta'kidlaydi Fayzulla Xo`jayev.

BXSRda aholi sonimasalasida ham tarixchi olimlar asarlarida ma'lumotlar mavjud. Jumladan, mustaqillik yillarida nashrdan chiqqan professor Shodmon Hayitov va dotsent Kamol Rahmonovlarning "Buxoro Xalq Respublikasi va Germaniya: hamkorlikning tarixiy lavhalari (1920-1924-yillar)" risolalarida shunday ma'lumotlar mavjud: BXSR yillarida amirlik davrida mavjud bo`lgan mamlakat ma'muriy bo`linishidagi 27 ta bekliklar tartibi o`rniga viloyatlar, tumanlar, kentlar, qishloqlar singari ma'muriy boshqaruv tartibi joriy qilindi. "Ozod Buxoro" gazetasining 1923-yil noyabr oyida nashr etilgan sonlaridan birida qayd etilishicha, BXSR 10 ta viloyat, 41 tuman, 132 kentga bo`linib viloyat-

⁵¹ Файзулла Хўжаев. Танланган асарлар. I том. –Т.: 1976. –Б.175-176.

lardagi aholi soni quyidagicha edi: Buxoro viloyati - 420 000 kishi, Karmana viloyati - 180 000 kishi, Behbudiy (avvalgi Qarshi) viloyati - 220 000 kishi, Karki viloyati - 160 000 kishi, Chorjo'y viloyatida - 250 000 kishi, Shahrisabz viloyatida - 250 000 kishi, Sherobod viloyatida 220 000 kishi, Hisor viloyatida - 140 000 kishi, Ko'lob viloyatida - 140 000 kishi, G'arm viloyatida - 8000 kishi⁵².

Bundan tashqari, risolada keltirilishicha, Respublika viloyatlarida istiqomat qilayotgan aholini turmush tarzini ko'tarish, mamlakatda zamonaviy iqtisodiyot asoslarini yaratish, xo'jalikning o'rta asr darajasida qolgan texnikadan xolos qilish kabi dolzarb muammolar yechimi rivojlangan davlatlar bilan o'zaro hamkorlik aloqalariga ko'p jihatdan bog'liq edi. Buxoro Xalq Respublikasi hukumati amirlikdan meros bo'lib qolgan qashshoqlik va notenglikni bartaraf qilish maqsadida o'z fuqarolaridan ikki yil, ya'ni, 1920-1922 yillar davomida soliq ham olmadi. Davlat va hukumat xarajatlari respublika xazinasini zaxiralari hisobidan qoplangan⁵³.

X.M.Muhamedov, O.T.Husanov, B.M.Muhamedovlarning hammuallif-likda 2008-yil nashrdan chiqargan "O'zbekiston davlati va huquqi tarixi" kitobida aytilishicha: "1920-yilning 23-sentabrida Buxoro sovetlarning Qurultoyida BXSRning birinchi Konstitutsiyasi qabul qilindi. Unda mehnatkashlarning mavjud huquq va erkinliklari kengaytirildi. Mulkdorlarning, ruhoniylarning, aksilinqilobiy kuchlarning saylov huquqlari bekor qilindi"⁵⁴.

Aholining ijtimoiy-moddiy ahvoli masalasi turli tarixchi olimlar, hattoki, BXSR hukumat a'zolari tomonidan ham yozib qoldirilgan. Fikrimizni yana Fayzulla Xo'jayevning I tom asarlaridagi ma'lumotlar bilan davom ettiramiz. BXSR Xalq Nozirlar Sho'rosi raisi o'z asarlarida shunday yozib qoldiradi: "Bizning dasturimizda Konstitutsiyamizda yozilgan gaplar bilan amalda

⁵² Бухоро жумхуриятида қанча халқ бор?// Озод Бухоро. 14-сон. 1923-йил 21-ноябр; Қаранг. Ҳайитов Ш., Раҳмонов К. Бухоро Халқ Республикаси ва Германия: ҳамкорликнинг тарихий лавҳалари (1920-1924-йиллар). –Т.: Фан, 2004. –Б.7.

⁵³ Ҳайитов Ш. Раҳмонов К. Бухоро Халқ Республикаси ва Германия: ҳамкорликнинг тарихий лавҳалари (1920-1924-йиллар). –Т.: Фан, 2004. –Б.8.

⁵⁴ Х. М. Муҳамедов ва бошқалар. Ўзбекистон давлати ва ҳуқуқи тарихи. –Т.: Тасвир, 2008. –Б.236.

bo'layotgan ishlar o'rtasida farq yo'q: bizda odamlarning irqi, tanasining tusi va milliy belgilaridan qat'iy nazar ishchilar sinfining hukmronligi o'rnatilgan, har bir ishchi, har bir jonkuyar mehnatchi mamlakatning xo'jayini, mamlakat taqdirini hal qiluvchi. Buxoro grajdanlari qonuniy yo'l bilan o'zlari orttirgan mol-mulkni to'la tasavvur qilishga va undan foydalanishga haqli ekanliklarini tantanali ravishda (e'lon qiladi) ta'kidlaydi. Grajdanlar qo'lidagi kapitalning miqdoriga nisbatan har qanday siquvlar shu kundan boshlab bekor qilinadi"⁵⁵. Fayzulla Xo'jayev o'z asarida yana ta'kidlaydi: "aloqa yo'llari qurish va shunday ot-arava transporti bo'yicha topshiriqlarnig ko'p qismi bajarilmay qoldi, ya'ni budjetdan berilgan mablag'lar yetmadi, ish aparati zaiflik qildi".

Ushbu ma'lumotlarni tahlil qilar ekanmiz, yuqorida keltirilgan tarixchi olim K.Rahmonovning "BXSR tarixi matbuot sahifalarida" nomli monografiyasidagi ma'lumotlar qanchalik to'g'ri va asosli ekanligiga guvoh bo'lamiz. Haqiqatda, Buxoro ko'chalarida avtomobil, foytun aravalar qatnovi yomon ahvolda bo'lgan.

BXSR davri tadqiqotchisi bo'lmish, tarix fanlari nomzodi, dotsent Kamol Rahmonovning 2012-yilda nashr qilingan "Buxoro Xalq Sovet Respublikasi tarixi matbuot sahifalarida" monografiyasida aholining ijtimoiy, moddiy, maishiy hayotiga oid ma'lumotlar keltiriladi. Muallif quyidagi ma'lumotlarni BXSRning mahalliy matbuot organi bo'lgan "Buxoro axbori" va "Ozod Buxoro" gazetalari nashrlaridagi materillarlarini o'rganish asosida keltiriladi. Ushbu monografiyada quyidagi ma'lumotlar mavjud: "Hukumat siyosatining muhim yo'nalishi bo'lgan aholi maishiy turmushini yaxshilash bilan bog'liq shahar va qishloqlarni obodonlashtirish, botqoqliklarni quritish va qamishzorlarni yo'qotish, istirohat bog'lari ochish kabi masalalar mahalliy matbuot organlari nashrlarida keng yoritilgan. Hukumat Buxoro ko'chalariga tosh yotqizish, transport yo'llarini tartibga keltirish haqida ham bir qator tadbirlar belgilangan. Matbuot materiallarining ma'lumoticha, Respublika poytaxti Eski Buxoro shahri ko'chalari tor, kechqurunlari ba'zi ko'chalarning qorong'uligi va ko'lmak suvi tufayli

⁵⁵ Файзулла Хўжаев. Танланган асарлар. Итом. –Т.: 1976. –Б.220,254.

hatto yayov yurish qiyinligi qayd qilinadi. Masalan, “Dohiliy (ichki ishlar) nazoratidan oling`on ma`lumotlarga ko`ra, Buxoro ko`chalarida tez yurig`on avtomobil va foytunlar orqasidan ot-foytun yoki avtomobil ostig`a qolib o`luvchilar, oyoqsiz, qo`lsiz qoluvchilar juda ko`pdur...”,-deb yoziladi “Ozod Buxoro” gazetasining 1923-yil 16-dekabr 25-sonida⁵⁶.

Mustaqillik yillarida, ya`ni 2011-yil N. Jo`rayev va Sh. Karimovlar tomonidan nashr etilgan “O`zbekistonning yangi tarixi” II qism (O`zbekiston Sovet mustamlakachiligi davrida) kitobida quyidagi ma`lumotlar keltiriladi: “Buxoro Xalq Sho`ro Respublikasi mehnat va mudofaa sovetining 1923-yil 4-yanvar qarori bilan muhtoj dehqonlarga yordam fondiga 140 ming pud urug`lik chigit va 123,5 ming pud urug`lik don berdi. Bundan tashqari, dehqonlarga 1344 bosh ish hayvoni va 3800 ta har xil dehqonchilik asboblari berildi”⁵⁷.

Yuqoridagi tarixchi olimlarning asarlarini, kitob va monografiyalarini tahlil qilar ekanmiz, BXSRning ijtimoiy masalalari atroflicha yoritilganiga guvoh bo`ldik. Endilikda, masalani BXSR aholining maishiy turmushi, kundalik iqtisodiy ahvoliga qaratamiz. Ushbu masalada e`tiborni dastlab aholining transport qatnovi, aloqa, pochta-telegraf xizmati, aholiga elektr ta`minoti masalalariga qaratamiz.

BXSR hukumat rahbari bo`lmish Fayzulla Xo`jayev boshchiligidagi hukumat a`zolari tomonidan xalqning maishiy turmushini yaxshilashga doir chora tadbirlar amalga oshirilgan. Xususan, Fayzulla Xo`jayev o`z asarlarining I tomida quyidagi ma`lumotlarni keltiradi: “Transport sohasida aloqa yo`llari qurish va shunday yo`llarda har xil yuk tashish vositalarini: avtomobillar, ekipajlar va shu kabilarni saqlash, transport kontrollari, passajir va Tovar stansiyalari va skladlarni ochish, daryo transporti (poroxodlar, barjalar, qayiqlar va b.) qurish hamda ulardan foydalanish masalalari ko`rildi. Aloqa

⁵⁶Раҳмонов К.Ж. Бухоро Халқ Совет Республикаси тарихи матбуот саҳифаларида. –Т.: Абу матбуот-консалт. 2012. –Б.78.

⁵⁷ Жўраев Н., Каримов Ш. Ўзбекистон тарихи. II том. (Ўзбекистон Совет мустамлакачилиги даврида). –Т.: “Шарқ”, 2011. –Б.248.

yo'llari va vositalari masalasi ham dasturga kiritildi. Fayzulla Xo'jayev o'z asarida yana quyidagi ma'lumotlarni aytadi: "Temiryo'l transporti bo'yicha Qarshi-G'uzor o'rtasida qatnov boshlandi. Suv transporti bo'yicha bu yil 100ta qayiq suvga tushirildi, bunga 150 000 so'm pul ajratildi. Transportning hamma turlari bo'yicha 8000 so'mga yaqin pul sarflandi. Xalq aloqa vositalari bo'yicha anchagina ishlar qilindi, ya'ni 220 chaqirim masofaga telegraf simi yangidan tortildi va 700chaqirim masofadagi telegraf simlari qayta qurildi. Dushanbeda radiostansiya ishga tushurildi va yangidan ikkitasi qurildi"⁵⁸. Fayzulla Xo'jayevning o'z asarida bayon qilgan ma'lumotlarni tahlil qilar ekanmiz bu ma'lumotlarga tanqidiy yondashamiz. Chunki bu asar Sovet davrida yozilganligi uchun ham o'sha davr tasiri sezilib turadi.

Endilikda yuqoridagi ma'lumotlarni yanada asoslash uchun boshqa manbaga yuzlanamiz. Mustaqillik yillarida tarix fanlari doktori, professor Sh.A. Hayitov va boshqalar tomonidan chop etilgan "BXSR: iqtisodiyot, ijtimoiy siyosat, madaniy hayot" deb nomlangan kitobda quyidagi ma'lumotlar mavjud: "Respublikada pochta-telegraf ishlari ham 1922-yilda yo'lga qo'yilgan edi. 1921-yilda hukumat nashriyoti oldida BuxROSTA (Rusiya telegraf agentligi Buxoro sho'bas) o'rniga BuxTAni (Buxoro telegraf agentligi) tuzish masalasi qo'yilgan. Uni tuzish uchun Buxoro Davlat nashriyoti direktori Mahmud Said Ahroriy, "Buxoro axbori"ning bosh muharriri, shoir Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpon va Golpirinlar kirgan uch kishidan iborat komissiya faoliyati samarali bo'lib, BuxTA tashkil etilib, uning mudirligiga Ismoilzoda Abdurahmon saylangan. Respublikada pochta va telegraf tarmoqlari rivojiga ham e'tibor qaratilib, 1921-1922-yillarda Dohiliya (ichki ishlar) nazorati huzurida maxsus "pochta-telegraf maktabi" ochilgan. Maktabni bitirganlarga shahodatnoma berilib, ular respublika viloyatlari bo'ylab xizmatga yuborilgan"⁵⁹.

⁵⁸ Файзулла Хўжаев. Танланган асарлар. I том. –Т.: 1976. –Б.278.

⁵⁹ Ҳайитов Ш ва бошқалар. БХСР: иқтисодиёт, ижтимоий сиёсат, маданий ҳаёт. –Бухоро: 2005. –Б.58-59.

Ushbu ma'lumotlarni tahlil qilib turib, K.J. Rahmonov tomonidan nashr qilingan "BXSR tarixi matbuot sahifalarida" monografiyasiga yuzlandik. Unda yana quyidagi ma'lumotlar mavjud: "Pochta-telegraf ishlari 1922-yilga kelib yo'lga qo'yilgan. Pochta va telegraf ishlari yo'lga qo'yilgan bo'lsada, kommunikatsiya xizmati sohasining bu yo'nalishdagi faoliyati ancha cheklangan edi. 1922-yil 1-noyabrda telegrafning har so'zi 20 so'm, buyurtma xatlari 50 so'm bo'lib, to'lov 1922-yilgi oqcha hisobidan amalga oshirilgan. Har bir fuqaro 24 soat (1sutka) ichida 1 ta telegramma berishga haqli bo'lgan. Telegramma ish joyidan tasdiqlangan bo'lishi, 5 so'zdan oshmasligi belgilab qo'yilgan"⁶⁰.

Sh.A.Hayitov va boshqalar tomonidan nashr qilingan "BXSR: iqtisodiyot, ijtimoiy siyosat, madaniy hayot" deb nomlangan kitobda yana quyidagi ma'lumotlar keltiriladi: "1922-1923-yillarda Buxoro Respublikasida ilk bor telefon stansiyalari qurildi va radioeshittirishlar joriy qilindi. 1923-yilda Rossiyaning Moskva shahridan asbob uskunalar olib kelindi"⁶¹.

K. Rahmonovning yuqorida keltirilgan monografiyasida esa ushbu radiostansiya haqida shunday ma'lumotlar keltiriladi: "Bu Minorayi Kalon ostig'a o'rnatulg'on", - deb yozadi Buxoro axbori gazetasi. Buxoro shahri aholisi 1923-yil fevral oyidan boshlab radioeshittirishlardan bahramand bo'lgan⁶².

Sh.A.Hayitovning yuqoridagi kitobida ma'lumot berilishicha: "Buxoroda shahar ko'chalarini yoritish aholini elektr chiroqlari bilan ta'minlash uchun Buxoroning Registon maydonida 1923-yil kuzida ilk bor elektr stansiyasi o'rnatildi. Xabarlarda elektr chiroqlari bilan shaharni yoritish 1923-yil 15-oktabrdan boshlandi, deyilsada, aslida buxoroliklar xonadonida elektr lampochkalari o'sha yilning 12-dekabridan porlay boshlagan". Ushbu kitobda mualliflar tomonidan yana quyidagi ma'lumotlar keltiriladi: "Buxoro

⁶⁰ Почта ва телеграф муносабатлари. Почта ва телеграф томонидан муҳим билдириш//Бухоро ахбори. 111-сон. 1922-йил 19-ноябр; Қаранг: Раҳмонов К. БХСР тарихи матбуот саҳифаларида. –Т.: “Абу матбуот-консалт”. 2012. –Б.78.

⁶¹ Ҳайитов Ш ва бошқалар. БХСР: иқтисодиёт, ижтимоий сиёсат, маданий ҳаёт. –Бухоро: 2005. –Б.58.

⁶² Янги радиостанция//Бухоро ахбори. 127-сон. 1923-йил 18-феврал; Қаранг: Раҳмонов К. БХСР тарихи матбуот саҳифаларида. –Т.: “Абу матбуот-консалт”. 2012. –Б.79.

shahridan keyin elektr chiroqlari Chorjo`y shahrida yonib, avvalo, harbiylar joylashgan binolar elektr toki bilan ta'minlangan.⁶³

Buxoro Xalq Sovet Respublikasida ma'muriy bo'linish va aholi soni o'zgarib turgan. Bu masalalar aholi turmushiga ta'sir ko'rsatgan. Ushbu masalalarni quyidagi tarixiy manbada ko'rish mumkin. Xususan, Sh.Hayitov va S. Badriddinovlar tomonidan 2007-yilda nashr qilingan "Buxoro tarixidan lavhalar (XIX-XX)" deb nomlangan kitobda quyidagi ma'lumotlar keltiriladi: "1923-yilda mamlakatning yangi hududiy bo'linishi amalga oshirilib, Respublikada 5ta okrug, 48 ta tuman, 195 ta kent tashkil etiladi. Arxiv hujjatlarining guvohlik berishicha, bu davrda Zarafshon okrugida 800 000, Sharqiy Buxoroda 600 000, Qashqadaryo okrugida 450 000, Turkman okrugida 350 000, Surxandaryo okrugida 300 000 kishi atrofida aholi yashagan"⁶⁴. Ko'rinib turibdiki, BXSRda aholi soni o'sib borgan. BXSR hukumati esa ijtimoiy islohotlar o'tkazgan".

Sh. Hayitov va K. Rahmonovlar tomonidan 2004-yilda nashr qilingan "Buxoro Xalq Sovet Respublikasi va Sharq mamlakatlari (1920-1924)" nomli kitobda quyidagi ma'lumotlar keltiriladi: "BXSR hukumatini turkmanlar masalasida tashvishga soladigan eng katta muammo "turkman qochoqlari" muammosi edi. 1920-yilningo`zida amir amaldorlari va dindor ruhoniylar bilan birga sobiq Chorjo`y va Karki bekliklari hududidan qo`shni Afg`onistonga 35 ming oila turkmanlar 2 mln qoramollari hamda son-sanoqsiz qo`y va podalari bilan o'tib ketishgandi. Ular Buxoro fuqarolari edi"⁶⁵, -deb yozilgan.

Bundan tashqari, aholi maishiy hayoti haqida Sh.A. Hayitov atroflicha ma'lumot beradi. "BXSR iqtisodiyot, ijtimoiy siyosat, madaniy hayot" nomli kitobda aytilishicha: "Buxoro Respublikasida aholini madaniy-maishiy hayotga kengroq tortish uchun 1923-1924-yillarda 5 ta klub, 10 ta qizil choyxonalar ham

⁶³ Хайитов Ш. ва бошқалар. БХСР: иқтисодиёт, ижтимоий сиёсат, маданий ҳаёт. —Бухоро: 2005. —Б.58-59.

⁶⁴ Хайитов Ш., Бадриддинов С. Бухоро тарихидан лавҳалар (XIX-XX асрлар). —Бухоро: 2007. —Б.44-45.

⁶⁵ Хайитов Ш., Раҳмонов К. Бухоро Халқ Совет Республикаси ва Шарқ мамлакатлари (1920-1924). —Бухоро. 2004. —Б.25.

ochilgandi. Bu muassasalar davlat byutjetidagi mablag`lar hisobidan ta'minlanar edi. Lekin yuqoridagi muassasalar Buxoro Respublikasining keng aholi qatlamlarini ijtimoiy hayotga jalb qila olmadi”⁶⁶.

Yana ushbu kitobda keltirilishicha: “1922-yil bahorida Buxoroda maktab o`quvchilari yozgi ta`til davrida dam olishlari uchun “bolalar bog`i” tashkil etilgan. Bog` unchalik katta bo`lmasada, lekin kechqurunlari va dam olish kunlari bolalar hamda ularning ota-onalari bilan gavjum bo`lgan. Sh.Hayitovning ushbu kitobida ta`kidlashiga ko`ra, 1923-yilda Labi Hovuzda va Devonbegi madrasasida davlat xazinasini hisobidan tamirlash ishlari olib borilib, Buxoro viloyat ijroko`mi va hukumatning iqtisodiy sho`rosi bu yerda yongan aholi uy-joylari va imoratlari o`rnida chiroyli chorbog` qilish rejasini amalga oshirishga kirishgan. Hukumat Buxoro ko`chalarida tosh yotqizish, transport yo`llarini tartibga keltirish haqida ham anchagina ish olib borgan”⁶⁷.

Yuqoridagi tarixiy kitoblarni tahlil qilar ekanmiz, ularda BXSР davri ijtimoiy hayoti, aholi maishiy-kundalik hayoti to`g`risida muhim ma`lumotlar mavjud. Tadqiqotchilar ushbu masalalarni atroflicha o`rganib, tahlil qilganlar. Tarixiy kitoblarni o`rganish davomida ushbu manbalarda BXSРda Sharq dunyosida ijtimoiy muammolarning eng muhim bo`g`ini hisoblangan jamiyat a`zolarining yarmidan ortig`ini tashkil qilgan xotin-qizlar muammosi masalalari ham yoritilganligiga guvoh bo`ldim.

BXSРda xotin-qizlar masalasi bilan bog`liq o`zgarishlarning tarixshunosligi istiqloq davrida rivojlandi. Turli tarixchi olimlarning kitoblari, monografiyalari va maqolalarida ushbu masala yoritilgan.

Dastlab, BXSР hukumat rahbari Fayzulla Xo`jayevning asarlarining I tomiga to`xtalamiz. Ushbu kitobda xotin-qizlar masalasi xususida quyidagi ma`lumotlar mavjud: “Xotin-qizlar masalasida. Bu ish mehnatkash xotin-qizlarning kasaba ittifoqlari (hunarmandchilik, kustarchilik ip-yigirish, pillachilik,

⁶⁶ Хайитов Ш ва бошқалар. БХСР: иқтисодиёт, ижтимоий сиёсат, маданий ҳаёт. —Бухоро: 2005. —Б.59.

⁶⁷ Шу китоб. —Б.57.

uy bekalari va shu kabilarning ittifoqlari)ga uyushtirishdan va ular orasida targ'ibot yuritishdan iborat bo'lishi lozim. Ular orasida paranji yopinishga qarshi ongli harakat kuchaytirilishi kerak. Shunday qilishgina hukumatning tegishli qonunlar chiqarishga kirishuviga imkoniyat berishi mumkin". Yana F.Xo'jayev ta'kidlaydi: "maorif sohasida uchta xotin-qizlar maktabi tashkil etildi. 128 nafar o'zbek qizlari o'qib turibdi"⁶⁸.

Yuqoridagi ma'lumotlarni BXSR rahbari Fayzulla Xo'jayev o'sha davrning jonli guvohi sifatida o'z asarida bayon qiladi.

Endi, to'g'ridan to'g'ri mustaqillik davri manbalarini tahlil qilamiz. Mustaqillik davrida tadqiqotchilar Sh.Hayitov, K.Rahmonov, M.Ahrorova-larning kitob va maqolalarida BXSRda xotin-qizlar masalasi atroflicha tahlil qilingan. Xususan, Sh.Hayitov va boshqalar tomonidan nashr qilingan "BXSR: iqtisodiyot, ijtimoiy siyosat, madaniy hayot" nomli kitobda xotin-qizlar masalasida quyidagi ma'lumotlar tahlil qilingan: "Bu muammo sharqning XXasr boshlaridagi mutafakkirlari, Buxoro Xalq Sovet Respublikasi hukumati rahbarlari: Abdurauf Fitrat, Said Ahroriy, Qori Yo'ldosh Po'latov kabilarning asarlari va publitsistik maqolalarida tahlil qilingan. Jumladan, S.Ahroriy Sharq ayolining ijtimoiy va ma'naviy jihatdan kamsitilgani haqida o'zining "Xotun" maqolasida: "Erkakning o'ylaganicha, xotun ermakdur, o'yinchoqdur, qo'g'irchoqdur. Ko'ngli qanday tilasa, shunday sevadur, majaqlaydur, sindiradur va ezadur"⁶⁹.

Tadqiqotchi Sh.Hayitov kitobida yana quyidagilarni ta'kidlaydi: "Buxoro axbori" gazetasining o'nlab sonlarida respublika xotin-qizlarining siyosiy huquqlari, madaniy-marifiy hayotdagi ishtirokini ta'minlash, ularning savodxonligini oshirish, oiladagi huquq va erkinliklari masalalariga bag'ishlab maqola va xabarlar e'lon qilingan. Buxoro Respublikasi tashkil topgan dastlabki kunlardanoq erkaklar bilan birga mahalliy xotin-qizlarni ham savodli qilish, ular orasidan muallimlar yetishtirmak uchun chora tadbirlar ko'rildi. "Eski Buxoroda

⁶⁸ Файзулла Хўжаев. Танланган асарлар. I том. –Т.: 1976. –Б.240, 279.

⁶⁹ М.С. Аҳрорий "Хотун"//Озод Бухоро. 1923-йил октябр. 6-сон; Қаранг: Ҳайитов III ва бошқалар. БХСР: иқтисодиёт, ижтимоий сиёсат, маданий ҳаёт. –Бухоро: 2005. –Б.49.

yerli xotin-qizlardan muallimlar yetishtirmak uchun 6 oylik ta'lim-tarbiya kurslari ochildi. Yerli (mahalliy) xotin-qizlarning bu kursga rag'bat-e'tiborlari zo'rdir"⁷⁰.

1996-yilda F.Qosimov mas'ul muharrirligida nashr qilingan "Buxoro tarixi masalalari" maqolalar to'plamida M.Ahrorova "Buxoroda xotin-qizlar harakati tarixidan" nomli maqola e'lon qildi. Ushbu maqolada quyidagi ma'lumotlar tahlil qilingan: Buxoroda xotin-qizlar harakatini o'rganish 20-yillardanoq boshlangan. 1960-1980-yillarda xotin-qizlar harakati O'zbekiston tarixshunosligida mustaqil muammoga aylanib uni o'rganish qator tadqiqotlarni yuzaga keltirdi. 1919-1920 yillarida Buxoro respublikasida ham birinchi xotin qizlar bo'limi tuzildi. 1924-yil 8-mart Xalqaro xotin-qizlar bayrami kunida Buxoroda birinchi marta - Sharq xotin-qizlarining ozodlik klubiochildi. Mitingda 1000 ga yaqin musulmon va yerli yahudiy xotin-qizlar qatnashdi. Shu kun 12 ayol paranji tashlashdi. Klub qoshida bolalar yaslisi va konsultatsiyasi, savodsizlikni tugatish kurslari tashkil qilindi.

M.Ahrorova maqolasida ta'kidlashiga ko'ra: Buxoro markaziy xotin-qizlar bo'limining 3 asosiy vazifasi mavjud:

1. Xodimlar tayyorlash;
2. Iqtisodiy ozodlikni ta'minlash va mehnatni muhofaza qilish;
3. Huquqiy sharoitni yaxshilash⁷¹.

Ushbu tarixiy kitoblarni tahlil qilar ekanmiz, ularda xotin-qizlar masalasi BXSРda muhim o'rin tutganligini ko'rish mumkin. Bundan tashqari, xotin-qizlar masalasi bilan bog'liq o'zgarishlarning tarixshunosligiga to'xtalsak, K.Rahmonovning 2012-yilda nashr qilgan "BXSР tarixi matbuot sahifalarida" deb nomlangan monografiyasi muhim ahamiyatga ega. Ushbu monografiyada xotin-qizlar masalasida quyidagi ma'lumotlar tahlil qilingan: "xotin-qizlarni hayotga kengroq tortish maqsadida Buxoroda 1922-yilning 17-martida birinchi marotaba "Xotunlar kuni" bayrami o'tkazilgan"⁷².

⁷⁰ Бухоро ахбори. 1921-йил 30-июн. 41-сон; Қаранг, Ҳайитов Ш ва бошқалар. БХСР: иқтисодиёт, ижтимоий сиёсат, маданий ҳаёт. —Бухоро: 2005. —Б.50.

⁷¹ М. Ахророва. Бухорода хотин-қизлар ҳаракати тарихидан//Бухоро тарихи масалалари. —Бухоро. 1996. — Б.125-138.

⁷² Раҳмонов К. БХСР тарихи матбуот саҳифаларида. —Т.: "Абу матбуот-консалт". 2012. —Б.90.

BXSR hukumati rahbarlari xotin-qizlarni ijtimoiy-iqtisodiy hayotga faol jalb qilish masalalarida islohotlar olib borgan. Ushbu masalalar yuqoridagi kitob va maqolalarda atroflicha o`rganilgan va tahlil qilingan.

Yana shuni ta`kidlab o`tish kerakki, 2000-yilda nashr qilingan “O`zbekistonning yangi tarixi” II tom (O`zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida) kitobida keltirilishicha, 1923-yilning kuziga kelib, Rossiya va Turkiston Respublikalarida ochlik va qashshoqlik davom etayotgan bir paytda, Buxoro Xalq Respublikasida turmush nisbatan farovon bo`lib qoldi. Buxoro so`mining qadr-qiymati Rossiya rubliga nisbatan 7-8 baravar oshib ketdi⁷³.

2.2. Buxoro amirligi va BXSR davrida aholi salomatligi va sog`likni saqlash tizimi sohasidagi amalga oshirilgan tadbirlar

Ushbu tanlangan “1920-1924-yillarda BXSR hukumatining harbiy va ijtimoiy sohalaridagi tub o`zgarishlarning tarixshunosligi” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishimning navbatdagi rejasi bevosita aholi salomatligi va sog`likni saqlash tizimi sohasidagi amalga oshirilgan tadbirlar deb nomlandi. Chunki, Buxoro amirligi va BXSRda sog`liqni saqlash muhim ijtimoiy masala hisoblanadi. Amirlik va BXSR yillarida sog`liqni saqlash sohasi turlicha holatda bo`lgan. Ushbu masala turli tarixchi olimlarning asarlarida atroflicha yoritilgan.

Ushbu rejada, asosan, ikki siyosiy tuzum davrida Buxoroda sog`liqni saqlash qanday holatda bo`lganligi masalasiga va bu qaysi tarixiy kitob, gazeta va maqolalarda yoritilganligiga to`xtalishga harakat qilingan.

Dastlab, fikrimizni Buxoroda amirlik tuzumi davrida sog`liqni saqlash masalasi qay holatda bo`lganligiga qaratamiz. Xususan, Sh. Hayitov, S. Badriddinov, K. Rahmonovlar tomonidan 2005-yilda nashr qilingan “Buxoro Xalq Respublikasi: iqtisodiyot, ijtimoiy siyosat, madaniy hayot” deb nomlangan kitobda

⁷³ Ўзбекистоннинг янги тарихи. II том (Ўзбекистон совет мустанлакачилиги даврида). –Т.: 2000. –Б.246.

Buxoro Xalq Sovet Respublikasi va Buxoro amirligi davri ijtimoiy hayoti masalalari atroflicha tahlil qilinadi. Ushbu kitobda aytilishicha: “Amirlik davrida Buxoro madaniy-maishiy qoloq bo`lib, bu Buxoro Respublikasiga meros bo`lib qoladi. Amirlik davrida ekologik muhit, ichimlik suvi muammosi, bezgak (varaja), rishta kabi kasalliklardan aholi qattiq azob chekardi. Sanitariya qonun-qoidalari va tadbirlariga e`tibor berilmas edi. Poytaxtdan chekka hududlarda esa ahvol bundanda og`ir bo`lgan”⁷⁴.

K. Rahmonov tomonidan nashr qilingan “Buxoro Xalq Sovet Respublikasi tarixi matbuot sahifalarida” (2012) deb nomlangan kitobda BXSRdagi ijtimoiy-madaniy, maishiy hayot, sog`likni saqlash masalalari “Buxoro axbori” va “Ozod Buxoro” gazetalari nashrlaridagi ma`lumotlar asosida tahlil qilingan. Tadqiqotchi Buxoro amirligi davriga to`xtalar ekan, unga yuqoridagi gazetalar ma`lumotlari orqali quyidagicha baho beradi: “BXSR yillarida aholi moddiy turmushining amirlik davridan qolgan past darajasi: Ocharchilik, qashshoqlik, ichimlik suvi muammosi, ko`pgina hududlarda quruq, chang-to`zonli, o`ta issiq garmselli ob-havo, qish faslida isitish sharoitlarining yaratilmaganligi sababli kasalliklar va yuqumli epidemiyalarning ko`plab turlari tarqalgan. “Buxoro axbori” va “Ozod Buxoro” gazetalarda yozilishicha, vabo, isitma, rishta (teri osti qurtlashi), bezgak (Buxoro varajasi), chechak, bo`g`ma, zaxm, teri-tanosil, ko`z og`rig`i kabi kasalliklar mavjudligi sanab o`tiladi. Amirlik davrida yagona sog`likni saqlash tizimi yaratilmagan”⁷⁵.

Yuqoridagi tadqiqotchilarning kitoblaridagi ma`lumotlarni tahlil qilar ekanmiz, Buxoroda amirlik davrida sog`likni saqlash tizimi past darajada bo`lganligini, hukumat tomonidan sog`likni saqlash, tibbiyot sohasida ko`zga ko`rinarli islohotlar o`tkazilmaganligiga guvoh bo`ldim. Ammo bu bilan amirlik davrida hech nima qilinmagan deb bo`lmaydi. Xususan, hukumat tomonidan

⁷⁴ Хайитов Ш ва бошқалар. БХСР: иқтисодиёт, ижтимоий сиёсат, маданий ҳаёт. —Бухоро: 2005. —Б.55.

⁷⁵ Раҳмонов К. БХСР тарихи матбуот саҳифаларида. —Т.: “Абу матбуот-консалт”. 2012. —Б.79-80.

bo`lmasada, ayrim taraqqiyparvar kishilar tomonidan tibbiyot sohasida ishlar olib borilgan.

Bunda Sh. Hayitov mas'ul muharrirligida 2016-yil 9-10-dekabr kunlari nashr qilingan "Buxoro tarixi masalalari: eng qadimgi davrdan hozirgacha" nomli to'plamda T. Qayumov tomonidan e'lon qilingan "Mirzo Sirojiddin Hakim-buxorolik taraqqiyparvar va tabobat donishmandi" deb nomlangan maqola muhim ahamiyatga ega. T. Qayumov o'z maqolasida Mirzo Sirojiddin Hakimning amirlik davrida Buxoroda tibbiyot sohasida qilgan ishlarini yoritadi. Jumladan, maqolada quyidagilar ta'kidlanadi: "Mirzo Sirojiddin Hakim Buxoriy (1878-1914) Buxoro shahrida kamolga yetdi. U fenomenal qobiliyatga ega bo'lib, o'zbek, fors-tojik, turk, arab, rus, fransuz tillarini puxta bilgan. U Yevropa va Osiyoning o'nlab shaharlari bo'ylab 3 marta sayohat qilgan. Bo'lajak tabib Germaniya, Avstriya, Fransiya, Bolgariya, Vengriya kabi davlatlarining ilg'or tajribalarini o'rgangan. Buxoroda zamonaviy tibbiyotning mavjud emasligi, gigiyena qoidalariga amal qilmaslik, zararli ob-havo, ekologik muammolarni bartaraf etishga e'tiborning mavjud emasligi, shu tufayli rishta (teri osti qurtlashi), mollariya, chechak, zaxm, ichki kasalliklar avj olgan. Har yili ushbu yuqumli kasalliklardan ming-minglab kishilar hayotdan ko'z yumardi. Mirzo Siroj Buxoro shahrining Chelangari mahallasida birinchi zamonaviy kasalxona ochib, unda Yevropa uslubi bilan meda, rishta, bezgak kasalliklarini davolay boshladi. Mazkur shifoxona huzurida dori tarqatish tartibi joriy etildi. Umuman bu kasalxona kechayu kunduz ishlardi. Kambag'allar tekin davolanishgan"⁷⁶.

Ushbu masalaga U. Nizomiddinov ham ancha ilgari to'xtalgan. U o'zining "Mirzo Sirojiddin" nomli kitobini nashr qildirgan. Ushbu kitobda muallif quyidagi ma'lumotlarni keltiradi: "Mirzo Sirojiddin Buxoro xalqi orasida keng tarqalgan rishta kasalligini be'morlarning teri ostidan qurtlarni sug'urib olib yo'qotish orqali davolash usulini kashf etdi. "Buxoroyi sharif" gazetasida bosilgan xabarlardan

⁷⁶ Қаяумов Т. "Мирзо Сирожиддин Ҳаким-бухоролик тараққийпарвар ва табобат донишманди"//Бухоро тарихи масалалари: энг қадимги замонлардан ҳозиргача. –Бухоро. 2016. –Б.64-67.

birida uning sa'y-harakatlari bilan 300 nafar bemor rishtadan qutulganligi haqida ma'lumot keltirilgan. Shuningdek, davolash ishlari ham insonparvarlik tamoyili asosida bajarilar, o'ziga to'q insonlar tanasidan har bir nobud qilingan rishta uchun 5 tanga, o'rta hol insonlardan 2,5 tanga olishardi. Kambag'al beva-bechoralardan va yetim yesirlardan bir tanga ham olishmas, ularni tekin davolashardi"⁷⁷.

Mirzo Sirojiddin Hakim "Buxoroyi sharif"da qirqqa yaqin maqolalarini tabobat va tibbiyot tarixiga bag'ishladi. Uning "Meda va ichak kasalliklari va ularning oldini olish tadbirlari" (1912), "Sil kasalligi va uni davolash usullari to'grisida", "Sog'likni saqlash" (Buxoroyi sharif gazetasida), "Bir oz faoliyat lozim" kabi maqolalari bosilib chiqqan",- deb ta'kidlaydi yuqorida keltirilgan maqola muallifi T. Qayumov.

T. Qayumovning ushbu maqolasida yana ushbu ma'lumotlar mavjud: "Olim ya'ni Mirzo Sirojiddin amirlik davrida kasalliklarning asosiy qismi ichimlik suvi va oziq-ovqat iste'molidagi tartibsizlikdan kelib chiqishida deb hisoblaydi. "Suv bir joyda uzoq qolib ketsa, ifloslanadi va unga tirik jonivorlar (bakteriyalar) mikroblar paydo bo'lib, kasallikni keltirib chiqaradi. Havoning iflosligi ham mikroblar paydo bo'lishini ta'minlaydi. Bu mikroblar ovqatlanganda, suv ichayotganda havodan qo'shilib, meda va o'pkaga boradi va aholini kasallantiradi. Binobarin, g'o'layi ohanin (temir quvur) orqali har manzil makonga vodoprovod (favvora) o'tkazib, pokiza suvlarni yetkazib, nazorat qilish kerak",- deb yozadi hakim "sog'liqni saqlash" maqolasida. Mirzo Sirojiddin "Tuhfai ahli Buxoro" (Buxoro ahliga tuhfar) nomli asar yozgan⁷⁸.

Yuqoridagi maqola va kitoblarning ma'lumotlariga qaraganda Buxoro amirligida ham tibbiyot, sog'liqni saqlash masalalarida o'zgarishlar bo'lgan. Faqat ushbu o'zgarishlar hukumatning islohotchilik faoliyati natijasi bo'lmay, ayrim taraqqiyparvar shaxslarning sa'y-harakatlari natijasida bo'lgan. Ammo shunday

⁷⁷ Низомиддинов У. Мирзо Сирожиддин. –Т.: Ўзбекистон Республикаси Фанлар Академияси нашриёти. 1963. –Б.5.

⁷⁸ Қаяумов Т. "Мирзо Сирожиддин Ҳаким-бухоролик тараққийпарвар ва табобат донишманди"//Бухоро тарихи масалалари: энг қадимги замонлардан ҳозиргача. –Бухоро. 2016. –Б.64-67.

bo'lsada, amirlik davrida aholining moddiy-maishiy turmushi og'ir bo'lib, turli yuqumli kasalliklarga qarshi kurash vositalari vujudga keltirilmadi. Hukumat bunga e'tibor qaratmagan. Ushbu og'ir ahvol amirlikdan so'ng tashkil topgan Buxoro Xalq Respublikasiga meros bo'lib qoldi. Bu ma'lumotlar tarixiy kitoblarda keltiriladi.

BXSR davrida sog'liqni saqlash, tibbiyot tizimi qanday bo'lganligi xususida turli tarixiy adabiyotlarni tahlil qilishga harakat qildik. Jumladan, BXSR hukumat rahbari Fayzulla Xo'jayev o'zining III tomli asarlarining I tomida ushbu masalaga, ya'ni sog'liqni saqlash masalasiga to'xtaladi. Muallifi tom "Tanlangan asarlar" II qismining "Buxoro 1924-yilda" deb nomlangan bandida xalq sog'lig'ini saqlashga oid BXSRda o'sha davrda qilingan ishlarni jonli guvohi va tashkilotchisi sifatida aytib o'tadi. Fayzulla Xo'jayev kitobida quyidagi tadbirlarni amalga oshirilganligini ta'kidlaydi: "xalq sog'lig'ini saqlash sohasida davolash muassasalarini ko'paytirish va yuqumli kasalliklarga qarshi choralar ko'rish borasida katta ishlar qilindi. Hozir bizda 5 ta kasalxona, 27 ta ambulatoriya punktlari, 7 ta feldsherlik punktlari, 6 ta bezgak stansiyalari, 7 ta dorixona omborlari va dorixonalar bor, meditsina xodimlarimiz 150 nafarga yetkazildi. Katta markazlardagi hayotni sog'lomlashtirish bilan bir qatorda uzoq joylarda, ayniqsa, Sharqiy Buxoroda ham bu ishlar olib borildi. 1923-1924-yilgi budjetdan sog'liqni saqlashga 211000 so'm sarflandi. Kelgusi yilda quyidagi ishlarni qilish mo'ljallab qo'yilgan:

1. Davlat muassasalari kengaytiriladi, meditsina xodimlarining malakasi oshiriladi.
2. Meditsina ta'minoti va uskunalash ishlari kuchaytiriladi, sanitariya oqartuv ishlari olib boriladi.
3. Aholiga tekin yordam berish saqlanib qoladi, joylarda olib borilayotgan ishlar kuchaytiriladi"⁷⁹.

⁷⁹ХўжаевФ.Танланганасарлар.Ітом. -Тошкент: Фан, 1976. –Б.279-280.

Ko`rib turganimizdek, BXSR rahbari Fayzulla Xo`jayev o`zi boshchiligida amalga oshirilgan tadbirlarni o`z kitobida yozib qoldirgan. Bundan tashqari, boshqa tarixshunos olimlarning kitoblariga murojaat qildim.

Xususan, tarixchi olim F. Qosimov 1996-yilda “Buxoro Respublikasi tarixshunosligi” nomli risolasini nashr qildirdi. Olim Buxoro Respublikasi tarixshunosligini boshlab berdi. F. Qosimovning ushbu kitobida tibbiyot sohasiga ham to`xtalib o`tilgan. “Buxoro Respublikasi tarixshunosligi” kitobida quyidagi ma`lumotlar uchraydi: “Bolsheviklar hokimiyatni qo`lga olganlaridan keyin Rossiyada fuqarolar urushi avjiga chiqib, Volga bo`yidagi hududlardan minglab oilalar yemishlik izlab, turmush nisbatan farovon bo`lgan Markaziy Osiyoga yopirilib kela boshladilar. Buning oqibatida Buxoroda yuqumli tif kasalligi epidemiyasi boshlandi. Buning oldini olish maqsadida respublika hukumati tarkibida S. Chuliboyev rahbarligidagi Favqulotda sanitariya komissiyasi tuzilib, unga barcha hukumat idoralari ijro etishga majbur bo`lgan huquqlar berildi. Buxoro, Kogon va boshqa shaharlardagi barcha mavjud shifoxona va ambulatoriyalar tifga chalingan bemorlarni qabul qila boshladi, ularning yonida shu maqsadda barak shaklidagi vaqtinchalik binolar qurildi”⁸⁰.

Bundan tashqari, ushbu masalada U. Rashidov tomonidan 1991-yilda “Guliston” jurnalida nashr qilingan maqolasi muhim ahamiyatga ega. Muallifning ushbu maqolasi “20-yillarda Buxoro” deb nomlanib, unda Buxoro Respublikasi sog`liqni saqlash tizimi, boshqaruvi masalasi va tadbirlari atroflicha yoritilgan. Muallif maqolada quyidagi ma`lumotlarni keltiradi: “1920-yil 31-oktabrda Buxoro aholisiga ko`rsatiladigan tibbiy yordamni tashkil etish maqsadida Respublika Sog`likni Saqlash Nozirligi tashkil etilgan bo`lib, boshida u Maorif Nozirligi qoshida bo`lim sifatida tashkil etilgan. 1922-yildan boshlab esa bo`lim Ichki ishlar nozirligiga tegishli bo`lgan, 1923-yil dekabr oyidan boshlab Markaziy sog`liqni saqlash boshqarmasi, deb yuritila boshlangan. Sog`liqni saqlash boshqarmasining birinchi boshlig`i Xo`ja Hakim Faxriddinov bo`lib, yordamchisi esa feldsher I.

⁸⁰КосимовФ.БухороРеспубликаситарихшунослиги. - Бухоро: Бухоро нашр., 1996. –Б.43-48.

Eydelnant edi. Boshqarma kollegiyasining aʼzolari sifatida G. Urbax, A. Ananev, Dmitresku, Gankin xizmat koʻrsatganlar. Mamlakatning yirik shaharlarida sogʻlomlashtirish tadbirlariga kirishish maqsadida sogʻliqni saqlash boʻlimlari tashkil etildi. Respublika Rossiya bilan iqtisodiy va madaniy hamkorlikni kuchaytirib, joylarda epidemiyalarga qarshi kurashni tashkil etish maqsadida mutaxasislarni Buxoroga yuborishni soʻradi. 1920-yilning noyabrida Moskvadan 17 tibbiy xodimdan iborat epidemiyalarga qarshi kurashga ixtisoslashgan otryad yetib keldi”⁸¹. Yuqorida muallif U. Rashidovning Buxoro Respublikasi sogʻliqni saqlashning boshqaruv tizimida amalga oshirgan tadbirlari xususidagi maʼlumotlari bilan tanishdik.

BXSR hukumati shifokor kadrlar masalasiga ham eʼtibor berdi. Sh. Hayitov va S. Badriddinovlar tomonidan 2007-yilda nashr qilingan “Buxoro tarixidan lavhalar (XIX-XX asrlar)” nomli kitobda Buxorodagi ijtimoiy-maʼmuriy masalalar yuzasidan maʼlumotlar bor. Mualliflar ushbu masalaga toʻxtalib, Buxoroda tabib Qori Muhammad Aminov faoliyatiga qisqacha toʻxtalib oʻtadilar. Buxoroda sanitariya-epidemiologiya boʻlimi boshligʻi boʻlgan tabib Qori Muhammad Aminov oʻzida ham sharq ham gʻarb muolaja taʼlimotini mujassamlashtirgan boʻlib, u yozib bergan retseptlar asosida rus dorixonalarida dori-darmonlar tayyorlana boshladi. Mualliflar sogʻliqni saqlash tizimi haqida quyidagi fikrlarni aytadi: Buxoroda tizim juda zaif boʻlib, amirlik davridan qolgan 35 oʻrinlik shifoxona, 5 oʻrinlik ayollar ambulatoriyasi, bitta dorixona ham shahar ustiga tashlangan bombalardan abgor boʻlgan edi. Buxoroga hujum chogʻida bir zamonlar Ashtarxoni Subhonqulixon tomonidan Arkning shimoliy tomonidan barpo etilgan Dorush-shifo madrasasi ham vayron boʻlib, tiklashning iloji yoʻq edi. Shuni nazarda tutib Fayzulla Xoʻjayevning tashabbusi bilan Arkning janubiy tomonida “Dor ul-muallimin” bilimgoʻhi qurilishiga kirishildi. Hukumat bilimgoʻhda nafaqat muallimlar, balkim shifokorlar tayyorlashni ham nazarda tutgan edi”⁸². Mualliflar

⁸¹ Рашидов У. 20-йилларда Бухоро//Гулистон. 1991, 2-сон. –Б.75-80.

⁸² Ҳайитов Ш., Бадриддинов С. Бухоро тарихидан лавҳалар. (XIX-XX асрлар). –Бухоро. 2007. –Б.37-38.

Buxorodagi 20-yillar boshidagi sog`liqni saqlash tizimi, tibbiyot masalalari xususida atroflicha ma'lumot beradilar.

Yana shu muallif Sh. Hayitov va boshqalar tomonidan nashr qilingan “Buxoro Xalq Sovet Respublikasi: iqtisodiyot, ijtimoiy siyosat, madaniy hayot” nomli kitobda BXSRning sog`liqni saqlash sohasida olib borgan tadbirlari xususida fikr yuritilgan. Muallif ushbu ma'lumotlarni keltiradi: “Ocharchilik va moddiy qiyinchiliklar girdobida qolgan Buxoro Respublikasi 3,5 millionli aholisining (ba'zi manbalarda 5 million deb qayd qilinadi) katta qismi epidemiya tusiga kirgan kasalliklarga chalindi. Buxoro shahridagi ekologik muhit, quruq, chang-to`zonli o`ta issiq, garmselli ob-havo va ichimlik suvi muammosi rishta (teri osti qurtlashi), mollariya (varaja), chechak, bo`g`ma, vabo, zaxm, tanosil kabi kasalliklarni keng tarqalishiga sabab bo`ldi”⁸³.

Sh. Hayitov va K. Rahmonovlarning “BXR va Germaniya: hamkorlikning tarixiy lavhalari (1920-1924-yillar)” nomli kitobda quyidagi ma'lumotlar keltiriladi: “Respublika aholisi salomatligini tiklash, yuqumli kasalliklarning oldini olish uchun Fayzulla Xo`jayev boshchiligidagi hukumat tegishli chora tadbirlarni ko`rdi. Xalq Nozirlar Kengashi raisining buyrug`i bilan bezgakni davolash uchun qishloqlarga dori-darmonlar tekin tarqatilgan. “Xalq salomatligini saqlash markaziy idorasi to`g`risida” maxsus nizomnoma tuzilib, uni Fayzulla Xo`jayev shaxsan o`zi imzolagan edi. Xorijga chiqarilgan paxta, jun, qorako`l teri, shirinmiya, ichak-chovoq hisobiga dori-darmonlar sotib olindi. Havzolsihat (sog`liqni saqlash) nazoratiga Germaniyadan sotib oling`on har xil dori va kasalxona asboblari keldi. Bular orasida ikki mollariya stansiyasi (varaja shifoxonasi) va kasalxonalar huzurida ochiladigan bir muncha dorixonalarga kerakli asboblari bor. 1923-yilda 1,5 ming kg igna, nina keldi”⁸⁴.

⁸³Хайитов, Шодмон Ахмадович. Бухоро Халк Совет Республикаси: иктисодиёт, ижтимоий сиёсат, маданий ҳаёт (1920 - 1924 йй.) / Ш.А. Хайитов, С. Бадриддинов, К.Ж. Раҳмонов. - Бухоро: Бухоро, 2005. –Б.43.

⁸⁴Хайитов Ш., К. Раҳмонов. Бухоро Халк Республикаси ва Германия: ҳамкорликнинг тарихий лавҳалари (1920-1924 йиллар). -Тошкент: Фан, 2004. -Б.64.

Yuqoridagi mualliflar tomonidan 2003-yilda yana bir kitob nashr qilindi. Ushbu kitob “Buxoroning xorijdagi talabalari (XX asrning 20-yillar)” deb nomlanib, Sh.Hayitov va K. Rahmonovlar tomonidan ham-mualliflikda nashr qilingan. Mualliflar ushbu kitobda “Buxoro varajasi” kasalligiga to`xtalib, quyidagi ma`lumotlarni keltiradilar: “Respublika markazi Buxoroda 10-15 yashar bolalarning 70 %idan ortig`i mollariya (Buxoro varajasi) bilan kasallangan. O`sha davr tarixiy manbalarni o`rganar ekanmiz bu kasallik buxorolik o`quvchi va talabalar bilan birga xorijiy ellargacha yetib borgan. Xabarlardan birida: “Buxoro varajasi” (kasallik turi) degani talabalarning qoni bilan birga Germaniyagacha borgan. Shu bolaning kasofatiga talabalar tezgina nemis bolalari orasiga qo`shila olmaganlar. Xastaxonalarga qo`yilib, tajribalik doktorlar qaramog`ida davo etilishiga ehtiyoj tushgan”<sup>85</sup>, – deb ma`lumot beriladi.

Ushbu masalalarni tahlil qilar ekanmiz, bevosita “Muloqot” jurnaliga murojaat qilamiz. Ushbu jurnalning 1994-yil 11-sonida quyidagi ma`lumotlar keltiriladi: “1923-yil dekabrda Buxoro Xalq Respublikasi hukumatining qarori bilan ekspeditsiya asosida Buxoro tropik instituti tashkil qilindi. 1924-yilning 2-yanvarida Buxoroda Fayzulla Xo`jayev nomidagi bu institutning ochilish marosimi bo`lib o`tdi. Buxoro hukumati o`lkaga ko`plab yuqori malakali shifokorlarni ishga jalb qilish maqsadida tibbiyot xodimlarining maoshini keskin oshirdi. Shu bilan bir vaqtning o`zida mahalliy aholi hisobida o`rta tibbiyot xodimlarini tayyorlash ishlariga kirishildi. Jumladan, 1922-yilning fevralida Buxoroda dori tayyorlovchi xodimlar tayyorlash uchun 16 yoshdan 23 yoshgacha bo`lgan 25 yigit qiz 6 oylik o`qishga jalb qilindi. O`lkada tibbiyot muassalari tarmog`ini kengaytirish hamon birinchi darajali vazifa edi. Shu maqsadda Buxoroda markaziy ambulatoriya va yana bir necha poliklinikalar, tish davolash kabinetlari ochildi, shifoxonalardagi o`rinlar soni ko`paytirildi, yirik tumanlarda 10 o`rinli shifoxonalar faoliyat boshladi. Xuddi shu davrlarda barcha kasalxonalarda vrachlarning kecha-kunduz

⁸⁵ Хайитов Ш., Раҳмонов К. Бухоронинг хориждаги талабалари (XX асрнинг 20-йиллар). –Бухоро: 2003. – Б.26.

to'xtovsiz davom etadigan navbatchilig'i, tez yordam xizmati tashkil qilindi, sug'urta tibbiyoti yo'lga qo'yila boshlandi. 1923-yilning yanvarida Buxoro Xalq Respublikasining Berlindagi vakolatxonasi orqali 1600 kg xinini, 6 ta ko'chma bezgak stansiyasi, 4 ta epidemiologik va bitta markaziy kimyo-bakteriologik stansiyasi uchun eng zamonaviy uskunalar sotib olindi. Germaniyadan Buxoroda tashkil etilgan klinik tipdagi 200 o'rinlik shifoxonaning jarrohlik, ginekologik, ko'z, quloq, og'iz, burun, teri-tanosil, asab va bolalar kasalliklari bo'limlari uchun katta miqdordagi asbob-uskuna, shu jumladan, rentgenoskopiya va rentgenoterapiya uskunalari sotib olindi"⁸⁶.

Mustaqillik davrida, ya'ni 2000-yilda nashr qilingan "O'zbekistonning yangi tarixi" (O'zbekiston Sovet mustamlakachiligi davrida) II tom kitobida BXSR davri sog'liqni saqlash tizimi va holati haqida ma'lumotlar keltiriladi. Ushbu kitobda quyidagi ma'lumotlar tahlil qilinadi: "Aholi salomatligini muhofaza qilishga doir keskin muammolarni hal etishda BXSRda muayyan qadamlar qo'yildi. Masalan, 1922-1923-yillarda BXSR hukumati bezgak kasalligining tarqalishiga qarshi dori-darmonlar xarid qilishga, kasalxonalar va profilaktika muassasalari qurilishiga 1 million oltin so'mdan ortiq mablag' sarfladi. 1923-yil oktabrga kelib, Respublikada 240 o'ringa ega bo'lgan 5 ta kasalxona ishlardi. Ular Buxoro, Qarshi, Karmana, Kogon va Chorjo'yda joylashgan edi. Shuningdek, 5 o'rinli tug'ish bo'limlariga ega bo'lgan 2 ambulatoriya va 8 feldsherlik punkti aholiga xizmat ko'rsata boshladi. 1924-yil 1-yanvardan esa, Buxoroda tropik instituti o'z faoliyatini boshladi"⁸⁷.

BXSRdagi sog'liqni saqlash tizimi, hukumat tadbirlari xususida juda muhim manbalardan biri bu K. Rahmonov tomonidan nashr qilingan "Buxoro Xalq Sovet Respublikasi tarixi matbuot sahifalarida" nomli monografiya hisoblanadi. Ushbu monografiya muallif tomonidan 2012-yilda chop ettirilgan. Unda BXSRning harbiy va ijtimoiy masalalari hamda sog'liqni saqlash tizimi, o'zgarishlar matbuot

⁸⁶ Мулоқот журнали. 1994. №11. –Б.35.

⁸⁷ Ўзбекистоннинг янги тарихи. II том (Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида). –Т.: 2000. –Б.248.

nashrlari asosida tahlil qilingan. Xususan, muallif quyidagi muhim ma'lumotlarni keltiradi: "Sog'liqni Saqlash Xalq Nozirligi 1920-yil 1-noyabrda Maorif Nozirligi tarkibidan mustaqil nozirlik sifatida ajralib chiqqan. Gazetalarda qayd qilinishicha, "Xalq salomatligini saqlash markaziy idorasi to'g'risida"gi maxsus nizomnoma asosida 1922-1923-yillarda Germaniyadan BXSRga katta miqdorda dori-darmonlar, tibbiy asbob-uskunalar keltirildi. Bezgak kasalligining boshlanganligi oqibatida oltin oqcha hisobi bilan 40000 so'mdan oshiqroq mablag'ga xorijdan dori-darmonlar olinganligi "Buxoro axbori"da alohida qayd qilinadi. Bundan tashqari, quyidagi ma'lumotlar mavjud: "BXSRda feldsherlik punktlari, kasalxonalar ochishga jiddiy e'tibor qaratilganligi, faqatgina 1923-yilning avgust-sentabr oylarida SHerobod, Darband, Shahrisabz, Karki, Qarshi, Karmana, Nurota, Vobkent kabi tuman, shahar va viloyatlarda kasalxonalar ochilganligi matbuotda xabar qilinadi. Gazeta xabarlarida tuman va kentlarda ochilgan kasalxonalarning 30 yoki 50 kishiga mo'ljallanganligi, joylarning yetishmasligi, kasalxona va feldsherlik punktlarida tibbiyot xodimlarining soni kamligi qayta-qayta ta'kidlanadi. "Buxoro shahrida 1 ta dorixona mavjud bo'lib, aholi dori-darmonlar sotib olish uchun 2-3 soatlab navbatda turgan"⁸⁸, - deb yoziladi "Ozod Buxoro"da.

Yuqorida BXSRda sog'liqni saqlash masalalari yoritilgan tarixchi olimlarning maqola, kitob, monografiya va risolalari bilan tanishdik. Ushbu kitoblar ma'lumotlaridan ma'lum bo'ldiki, BXSRda sog'liqni saqlash sohasida ancha islohotlar, tadbirlar amalga oshirilgan. Respublikao'z fuqarolarining moddiy-maishiy turmushini, sog'ligini, iqtisodiy farovonligini, milliy totuvligini, erkinligini himoya qilishga oid umumdavlat islohotlari olib borgan.

⁸⁸ Раҳмонов К. Бухоро Халқ Совет Республикаси тарихи матбуот саҳифаларида. –Т.: "Абу матбуот-консалт". 2012. -Б.80-81.

Xulosa

Buxoroning yigirma besh asrlik tarixining 1920-1924-yillarini o'z ichiga oladigan qisqa, lekin siyosiy-ijtimoiy voqealarga boy davr - Buxoro Xalq Sovet Respublikasi davri o'ziga xos alohida o'rin tutadi. Tarixdan ma'lumki, Buxoro amirligi 1920-yil 2-sentabrda Buxoroga Qizil armiyaning bostirib kirishi oqibatida sovetlar tomonidan ag'darib tashlandi. Ushbu voqealargacha, ya'ni 1920-yil 10-avgustda Kogonda Ahmadjon Abdusaidov rahbarligida Butun Buxoro Inqilobiy Qo'mitasi va Fayzulla Xo'jayev raisligida Xalq Nozirlar Kengashi tashkil etildi. 1920-yil 6-8-oktabrda amirning yozgi saroyi Sitorai Moxi Xosada chaqirilgan Butun Buxoro xalq vakillarining birinchi qurultoyida joylardan saylangan 1950 delegat ishtirok etdi. 8-oktabrda Qurultoyning oxirgi yig'ilishida Buxoro Xalq Sovet Respublikasi tuzilganligi e'lon qilindi. Ushbu Respublika tuzilgan kundan boshlab, milliy mustaqillik sari intildi. Lekin bu mustaqillik uzoq davrni taqozzo etganini anglab olish qiyin emas.

Zeroki, Birinchi Prezidentimiz I.A. Karimov qayd etganlaridek: "Tarix O'zbekistondagi tub demokratik islohotlarni oziqlantiruvchi hayotbaxsh chashmaga aylanib bormoqda. Buxoro, Xiva va Samarqandning ko'hna madaniyati, ajdodlarimiz qoldirgan ulkanmeros tarixi xotiramizni uyg'otmoqda, yangicha fuqarolik ongini shakllantirmoqda".

O'zbek milliy davlatchiligi tarixida garchi qisqa davr yashagan bo'lsada, Buxoro Xalq Sovet Respublikasi (1920-1924-yillar) muhim bosqich bo'lganligini qayd etish o'rinlidir. BXSRda F.Xo'jayev boshchiligida milliy hukumatning shakllanishi, milliy mustaqil rivojlanish sari amaliy qadamlar qo'ydi. BXSR hukumati mustaqil davlat sifatida ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va harbiy islohotlar olib bordi. Yangicha va demokratik, zamonaviy davlat qurishg'oyalarini baland ko'tarib chiqdi va sho'ro mustamlakachiligi tahdid solib turgan bir davrda milliy mustaqil davlat sifatida boshqa davlatlar bilan teng huquqli aloqalar o'rnatdi. Mustaqillik yillarida Buxoro Xalq Sovet Respublikasining tarixini, o'sha davrlarda kechgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni, iqtisodiy-madaniy rivojlanish

xususiyatlarini yangicha tafakkur nuqtayi-nazaridan yoritgan talaygina asar va maqolalar yaratildi. Ushbu asar va maqolalarni o`rganish davomida Buxoro Xalq Sovet Respublikasi o`zining 4 yillik tarixi davomida Turkiya, Afg`oniston, Germaniya kabi davlatlar bilan xalqaro munosabatlarning teng huquqli subyekti sifatida munosabatlar o`rnatganiga, BXSR hukumati tomonidan harbiy-siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma`muriy islohotlar va tadbirlar amalga oshirilganligiga guvoh bo`lindi.

Ushbu men tanlagan “1920-1924-yillarda BXSR hukumatining harbiy va ijtimoiy sohalaridagi tub o`zgarishlarning tarixshunosligi” nomli bitiruv malakaviy ishini o`rganishda turli tarixchi olimlarning asarlari va maqolalaridan, turli gazeta va jurnallardagi maqola va materiallardan foydalandim. Xususan, istiqlol yillarida mamlakatimizda yaratilgan turli kitob, monografiya, risola, maqolalarni tahlil qilib chiqdim. Ushbu mavzuni yoritishda, tarix fanlari doktorlari F. Qosimov, Q. Rajabov, Sh. Hayitovlarning asarlaridan, tarix fanlari nomzodlari U. Rashidov, K. Rahmonovlarning asar va kitoblaridan, maqolalaridan foydalanildi. Bundan tashqari, S. Badriddinov, X. Muhammedov, T. Qayumovlarning, O`. Rashidov, B. Mirzoqulovlarning kitob va maqollalarida keltirilgan materiallardan foydalanildi. Bundan tashqari, Buxoro amiri bo`lgan Said Olimxonning xotiralari va BXSR hukumat rahbari bo`lgan Fayzulla Xo`jayevning asarlaridan foydalanildi. Ushbu tarixchi olimlarning kitoblarida BXSR davri harbiy va ijtimoiy sohalaridagi tub o`zgarishlari atroflicha o`rganilib tahlil qilingan. Tarixiy kitoblarni va maqolalarni tahlil qilganimizda bevosita BXSR hukumati tomonidan amalga oshirilgan tadbirlarga guvoh bo`ldik. Kitoblarda keltirilishicha, BXSR hukumati yosh Respublika bo`lishiga qaramay harbiy islohotlar olib bordi, milliy armiya tuzib, unga mahalliy millat vakillarini jalb qilishga harakat qildi. Bundan tashqari, xalqni ahvolini va turmush sharoitini yaxshilashga intilib qator iqtisodiy-maishiy islohotlar olib bordi. Respublika o`z fuqarolari huquqlarini himoya qilishga, xotin-qizlarni ahvolini yaxshilashga, ularga ham teng huquq berishga qaratilgan qator tadbirlarni amalga oshirganligi aniqlandi, tegishli xulosalarga kelindi.

Ushbu mavzuni o`rganish davomida men quyidagi taklif va mulohazalarni bildirmoqchiman:

1. BXSR hukumati yillaridagi harbiy islohotlar, amalga oshirilgan tadbirlar tarixini yanada chuqurroq o`rganish lozim. Chunki Buxoro zaminida milliy armiya tuzish harakatlari XX asrning 20-yillaridayoq amalga oshirilgan. Bu o`lka tarixi uchun juda muhim.
2. Buxoro amirligi va BXSR yillaridagi harbiy sohaning qiyosiy tahlili tarixshunosligini yaratish kerak. Ushbu ishimiz davomida shunga harakat qildik. Ammo ishimizda juda ko`p kamchiliklar bo`ldi deb o`ylayman. Ushbu davr harbiy soha tarixi nisbatan kam o`rganilgan.
3. XX asrning 20-yillari ijtimoiy o`zgarishlari ham nisbatan kam o`rganilgan. Buni chuqurroq o`rganish zarur. Chunki 4 yillik (1920-1924-yillar) qisqa davr bo`lsada, juda kata ijtimoiy o`zgarishlar sodir bo`lgan.
4. BXSRda maishiy hayot va xotin-qizlar masalasi bilan bog`liq o`zgarishlarning tarixi va tarixshunosligini yanada mufassal o`rganish lozim. Sharqda xotin-qizlar masalasi har doim va har bir davrda muhim va dolzarb bo`lib kelgan.
5. Va nihoyat, Buxoro amirligi va BXSR davrida aholi salomatligi va sog`liqni saqlash tizimi sohasidagi amalga oshirilgan tadbirlari tarixi va tarixshunosligini o`rganish hozirda endi faoliyat boshlagan yosh tarixchilar uchun juda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

I. O'zbekiston Respublikasi davlat rahbarlari asarlari:

I.1 O'zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti I.A. Karimov asarlari:

- I.1. Каримов И. А. Халқимиз бор экан, Амир Темур барҳаётдир. Янгича фикрлаш ва ишлаш - давр талаби. / Асарлар, 5 - жилд. -Т.: "Ўзбекистон", 1996.
- I.2. Каримов И. А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. -Т.: "Шарқ", 1998.
- I.3. Karimov I. A. Yuksakma'naviyat-yengil maskuch. -Т.: "Ma'naviyat", 2008.
- I.4. Karimov I. A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. -Т.: 2011.

I.2 O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev asarlari:

- I.5. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. -Т.: "O'zbekiston" 2017.
- I.6. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. -Т.: "O'zbekiston", 2017.
- I.7. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. -Т.: "O'zbekiston", 2017.
- I.8. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. -Т.: "O'zbekiston", 2017.

II. Asosiy adabiyotlar:

- II.9. Амир Саййид Олимхон. Бухоро халқининг ҳасрат тарихи. -Тошкент: Фан, 1991.
- II.10. Балжувоний М.А. Тарихи Нофеий. –Т.: Академия., 2001.
- II.11. Бухоро тарихи масалалари: мақолалар тўплами/ мух. Ф. Х. Қосимов. - Бухоро: Бухоро нашр., 1996.

- II.12. Гафуров А., Рашидов У. Бухоро халқ шўролар жумҳурияти тарихидан лавҳалар (1920-1924) –Т.: 1992.
- II.13. Ҳайитов Ш., Раҳмонов К. Бухоро ХалқСовет Республикаси ва шарқ мамлакатлари. -Бухоро, 2004.
- II.14. Ҳайитов Ш., Раҳмонов К. Бухоро Халқ Республикаси ва Германия: ҳамкорликнинг тарихий лавҳалари (1920 - 1924 йиллар) -Тошкент: Фан, 2004.
- II.15. Ҳайитов, Ш.А. Бадриддинов С., Раҳмонов К.Ж. Бухоро Халқ Совет Республикаси: иқтисодиёт, ижтимоий сиёсат, маданий ҳаёт (1920 - 1924 йй.)- Бухоро: Бухоро, 2005.
- II.16. Hayitov Sh., Badriddinov S. Buxoro tarixidan lavhalar (XIX-XX asrlar). - Buxoro. 2007.
- II.17. Ҳайитов Ш., Раҳмонов К. Бухоронинг хориждаги талабалари (XX асрнинг 20-йиллари). –Бухоро. 2003.
- II.18. Инсониятнинг илмий ва маданий мероси-учинчи минг йилликда: Бухоро ва Хива шаҳарларининг 2500 йиллигига бағишланган халқаро симпозиум тезислари. 1997 йил 18-20 октябрь. -Тошкент: Ўзбекистон, 1997.
- II.19. Жўраев Н., Каримов Ш. Ўзбекистон тарихи. 2-китоб (Ўзбекистон Совет муамлақчилиги даврида). –Т.: “Шарқ”. 2011.
- II.20. Мирзақулов Б. Бухоро тарих зарварақларида: энг қадимги даврлардан XX аср 20-йиллари иккинчи ярмигача. –Т.: LESSONPRESS, 2016.
- II.21. Muhamedov X.M., Husanov O.T., Muhamedov B.M., O`zbekiston davlati va huquq tarixi. –Т.: “Tasvir”, 2008.
- II.22. Наимов Н. Амирнинг хазинаси. –Бухоро. 1995.
- II.23. Низомиддинов У. Мирзо Сирожиддин. –Т.: Ўзбекистон Республикаси Фанлар Академияси нашриёти. 1963.
- II.24. Қосимов Ф. Бухоро Республикаси тарих шунослиги. -Бухоро: Бухоро нашр., 1996.

- II.25. Қаюмов Т. Мирзо Сирожиддин Ҳаким – бухоролик тараққийпарвар ва табобатдонишманди//Бухоро масалалари: энг қадимги замонлардан ҳозиргача. –Бухоро. 2016-йил 9-10-декабр.
- II.26. Қиличев Р. Отам босмачи эмасди //Бухоро ҳақиқати. –Бухоро. 1993-йил 13-феврал.
- II.27.Ражабов Қ. Бухорога қизил армия босқинчи ва унга карши кураш: тарих ҳақиқати (1920-1924 йй). – Тошкент: Маънавият, 2002.
- II.28. Рашидов У. Бухоро Халқ Республикаси (1920-1924-йиллар). –Бухоро. 2003.
- II.29. Рашидов У. Бухоронинг Россия билан иқтисодий ва сиёсий муносабатлари тарихидан (1900-1925 йй). –Бухоро: Бухоро, 2013.
- II.30.Рашидов У. 20-йилларда Бухоро//Гулистон. 1991.2-сон.
- II.31.Хўжаев Ф.Танланган асарлар. Т.2. –Тошкент: Фан, 1976.
- II.32. Ўзбекистоннинг янги тарихи. 1-китоб (Туркистон Чор Россияси мустамлакачилиги даврида). –Т.: “Шарқ”. 2000.
- II.33. Ўзбекистоннинг янги тарихи. 2-китоб (Ўзбекистон Совет мустамлакачилиги даврида). –Т.: “Шарқ”, 2000.